

**Adliya organlari va muassasalarida xarid qilish tartib-taomillarini  
tashkil etish va o‘tkazish  
REGLAMENTI**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyruqlariga muvofiq xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**avans to‘lovi** — qonunchilikda belgilangan tartibda adliya organlari (muassasalari) va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan, davlat xaridlarining elektron tizimi operatorining vositachilik yig‘imini va tomonlarning zakalatini o‘z ichiga olgan moliyaviy mablag‘lar summasi;

**davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnoma** – adliya organlari (muassasalari) va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasidagi davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv;

**yagona yetkazib beruvchi** – tabiiy monopoliya subyekti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida farmonlarida, qarorlarida va farmoyishlarida yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarida belgilangan subyektlar, shuningdek davlat tomonidan xarid qilinayotgan, bozorda muqobilari mavjud bo‘lmagan noyob tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi;

**tender** — davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo‘lib, uning natijalariga ko‘ra davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g‘olib deb topiladi;

**elektron do‘kon** — davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarni elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo‘yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

**eng yaxshi takliflarni tanlash** — xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

**lot** — turli belgilari bo‘yicha guruhlashtirilgan (foydalanish, texnik va funksional xususiyatlarga ko‘ra) bir xil turdagи tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) jamlanmasi sifatida adliya organi (muassasasi) tomonidan belgilangan va alohida davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomaga bo‘yicha xarid predmeti hisobalandigan miqdoriy qism;

**taklifni ta’minlash** — adliya organi (muassasasi)ning talabiga binoan ishtirokchi tomonidan takliflar va majburiyatlarning garov, kafolat, zakalat tarzida yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usulda ta’minlanishi;

**shaxsiy kabinet** — elektron davlat xaridlarida ishtirok etishni hamda zarur axborotni joylashtirishni va undan foydalanishni ta’minlaydigan, davlat xaridlari sub’yektlari, xarid komissiyasining mas’ul kotibi, xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlarining maxsus axborot portalidagi va (yoki) davlat xaridlarining elektron tizimidagi individual sahifasi;

**davlat xaridlarining reja-jadvali** — davlat buyurtmachisi tomonidan yil va chorak davomida xarid qilinishi rejulashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni nazarda tutuvchi hujjat;

**davlat xaridlari bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomma** — maxsus axborot portalida ro‘yxatga qo‘yilishi shart bo‘lgan, davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida adliya organi (muassasasi) va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasida tuziladigan bitim;

**qadam o‘lchovi** — boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksionning boshlang‘ich va/yoki o‘zidan oldingi xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisining narxini pasaytirishning foiz ko‘rinishida belgilanadigan intervali;

**hisob-kitob-kliring palatasi (keyingi o‘rinlarda — HKKP)** — avans to‘lovlarini deponentlash va ularni hisobga olish yo‘li bilan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajara oladigan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari elektron davlat xaridlariga kirishini ta’minlovchi davlat xaridlari elektron tizimining tarkibiy bo‘linmasi;

**yagona yetkazib beruvchilar reyestri** — vakolatli organ bilan kelishilgan holda maxsus axborot portali operatori tomonidan yuritiladigan axborot resursi;

**zaxiradagi g‘olib** — xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha xarid komissiyasining qaroriga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi;

**maxsus axborot portalı** (bundan buyon matnda portal deb yuritiladi) – vakolatli organ tomonidan yuritiladigan, davlat xaridlari amalga oshirilishi to‘g‘risidagi e’lonlar, davlat xaridlarining yakunlari, ishtirokchilarning takliflari haqidagi axborotni va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa axborotni elektron shaklda ko‘zdan kechirishni, shuningdek amalga oshirilgan elektron davlat xaridlari to‘g‘risida davlat xaridlari elektron tizimlarining operatorlari tomonidan kiritiladigan (yuboriladigan) axborotni to‘plashni ta’minlovchi veb-saytdir (maxsus elektron platforma).

**tabiiy monopoliya subyekti** – tabiiy monopoliya sharoitlarida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va/yoki realizatsiya qilish bilan band bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyekt (yuridik shaxs);

**tender taklifi** – tender hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq tender predmetiga nisbatan ishtirokchining taklifi;

**vakolatli organ** — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

**davlat xaridlarining elektron tizimi** — elektron davlat xaridlari jarayonidagi xarid qilish tartib-taomillarini o‘tkazishda davlat xaridlarining subyektlari hamkorligini ta’minlaydigan tashkiliy, axborotga oid va texnik yechimlarning dasturiy majmui;

**elektron davlat xaridlari** – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shakli.

2. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

elektron do‘kon;

boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion (bundan buyon matnda auksion deb yuritiladi);

eng yaxshi takliflarni tanlash;

tender;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

Xarid qilish tartib-taomillari elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin.

3. Xaridlarga tayyorgarlik o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

maxsus axborot portalida davlat xaridlarining reja-jadvallarini joylashtirish;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun avans to‘lovlarini kiritish;

davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlari o‘tkazilishi haqidagi e’lonlarni joylashtirish;

maxsus axborot portalida davlat buyurtmachisi o‘zi bilan affillangan shaxslar haqidagi ma’lumotlarni joylashtirish.

4. Portalda joylashtiriladigan reja-jadval quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

xarid predmeti;

xarid predmetining miqdori va narxi;

xarid o‘tkaziladigan oy;

davlat buyurtmachisining nomi va manzili;

xarid predmetini moliyalashtirish manbalari va muddatlari;

tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish joyi (manzili).

5. Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazishga doir talablar davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Bunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ustuvor bo‘ladi.

Adliya organlari (muassasalari) davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to‘g‘risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta’minalash kerak.

Davlat xaridlarida korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik:

insofli raqobatni va qarorlar qabul qilish chog‘ida xolisona mezonlardan foydalanish;

monitoring va nazorat o‘tkazishning, shu jumladan ichki monitoring va nazorat o‘tkazishning samarali tizimi yaratilishini;

“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablari muvofiq amalga oshirishni;

davlat xaridlarini amalga oshirishda bozor narxini o‘sha vaqtungi o‘rganganlik holatini tadiqlovchi ma’lumotlar mavjudligini (elektron do‘kon, tijorat takliflar, elektron saytlar va boshqalar);

davlat xaridlari tartib-taomillari “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan talablarga muvofiq o‘tkazilishini ta’minalash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilikda davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

6. Adliya organlari (muassasalari) bilan manfaatlar to‘qnashuviga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyekt xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bo‘lishi mumkin emas.

Davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha adliya organi (muassasasi)ga kiritiladigan bildirigiga xarid qilinadigan tovar, ish (xizmatlarning) bozor narxi o‘rganilganligi tasdiqlovchi ma’lumotlar ilova qilinishi lozim.

## **2-bob. Elektron davlat xaridlarini o‘tkazishning umumiyligi shartlari**

### **1-§. Elektron davlat xaridlarini o‘tkazishning umumiyligi shartlari**

7. Adliya organi (muassasasi) elektron davlat xaridlarida ishtirok etishi uchun adliya organi (muassasasi) operatorning vositachilik yig‘imini HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlariga o‘tkazadilar.

Adliya organi (muassasasi) elektron davlat xaridlarida ishtirok etish uchun zakalatni HKKPga o‘tkazishi talab etilmaydi.

8. Adliya organi (muassasasi) va ishtirokchilar elektron davlat xaridlaridagi ishtiroklarini elektron raqamli imzolardan (keyingi o‘rinlarda – ERI) foydalangan holda amalga oshiradi. Adliya organi (muassasasi) va ishtirokchining ERIdan foydalanib davlat xaridlarining elektron tizimi orqali tuzgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnomalari haqiqiy hisoblanadi.

9. Adliya organi (muassasasi) tomonidan shaxsiy kabinet orqali auksion, tanlash va tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon joylashtirilib yoki elektron do‘konda ishtirokchining ofertasi tanlanib, davlat xaridlarining elektron tizimi elektron davlat xaridlari yakunlariga ko‘ra tuziladigan shartnomaviy majburiyatlarni bajarish uchun moliyalashtirish manbalarini inobatga olgan holda kerakli summaga band qo‘yish to‘g‘risidagi axborotni DMBATdan olgandan so‘ng ushbu e’lonni yoki tanlangan oferta bo‘yicha narxlar so‘rovi mexanizmini faollashtiradi.

10. Adliya organi (muassasasi) tomonidan tanlash yoki tender o‘tkazishda ishtirokchilar tomonidan zakalat kiritish zarurati hamda kiritiladigan zakalat miqdori xarid komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Bunda g‘olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda, unga zakalat summasi qaytarib berilmasligi va mazkur mablag‘lar operator tomonidan adliya organi (muassasasi) tegishli hisobvarag‘iga o‘tkazib berilishi ustidan nazoratni organi (muassasasi)ning tegishli xo‘jalik ishlari bo‘yicha bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi lozim.

11. Adliya organi (muassasasi) tanlash yoki tender natijasida tuzilgan shartnoma bo‘yicha to‘lovlarni HKKPdagi shaxsiy hisobvaraqlaridan foydalanmagan holda amalga oshiradi. Bunda oldindan to‘lov shartlari shartnomada nazarda tutiladi.

12. Ijrochi HKKP tomonidan mablag‘ tushganligi to‘g‘risidagi xabarnoma yuborilishidan oldin tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib bergen taqdirda,

adliya organi (muassasasi) tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qabul qilinmasdan ular bo'yicha to'lov amalga oshirilmasligi kerak.

13. Adliya organi (muassasasi) elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma asosida tovarni (ishni, xizmatni) to'liq qabul qilgandan so'ng uch ish kuni mobaynida bu to'g'risidagi axborotni byudjet tashkilotlarining hisobi va hisobotlari avtomatlashtirilgan tizimining dasturiy kompleksi orqali DMBATga kiritishga va yuborishga majbur.

14. Elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo'yicha yetkazib berish muddati tugagandan so'ng tovarlar (ishlarni, xizmatlar) yetkazib berilganligi haqidagi ma'lumot mavjud bo'lmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi bir ish kuni mobaynida avtomatik rejimda adliya organi (muassasasi) va Moliya vazirligini xabardor qilinishi adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo'jalik ishlari bo'yicha bo'linmalari.

15. Adliya organi (muassasasi) tomonidan elektron do'kon yoki auksion orqali tuzilgan shartnoma bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilganligi haqidagi ma'lumot taqdim qilinmaganda, HKKP ushbu shartnoma bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni yetkazib berish muddati tugagach uch ish kunitan so'ng:

adliya organi (muassasasi)ning shartnoma bo'yicha mablag'lariga sud yoki Davlat xaridlari sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaning tegishli qarori qabul qilinguniga yoki shartnoma bekor qilingunga qadar band qo'yishi;

bajarilmagan shartnomalar bo'yicha ma'lumotlarni Moliya vazirligiga yuborilganlik holatlari yuzasidan adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo'jalik ishlari bo'yicha bo'linmalari har oyning 10 sanasiga qadar umumlashtirilgan ma'lumotlarni vazirlikka kiritib borishi kerak.

## **2-§. Elektron do'kondan foydalanish**

16. Elektron do'kon vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 5-bobi hamda ushbu Reglamentga 1-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

17. Elektron do'kon vositasidagi davlat xaridi Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Adliya organi (muassasasi) tomonidan elektron do'kon orqali tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) milliy klassifikatoriga muvofiq guruhlashtirilgan ayni bir turdag'i tovarlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining o'n ming baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

Adliya organi (muassasasi) tomonidan elektron do'kon orqali tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) milliy klassifikatoriga muvofiq guruhlashtirilgan ayni bir

turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

18. Adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo‘jalik ishlari bo‘yicha bo‘linmalari tomonidan ishtirokchining elektron do‘konga joylashtirgan taklifi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatganligini o‘rganishi lozim:

taklif etilayotgan tovarning (ishning, xizmatning) nomi;

sotish narxi;

tovarning eng ko‘p va eng kam to‘pi;

tovarning rusumi va texnik parametrlari (texnik pasport yoki boshqa hujjat asosida);

tovarning fotosurati;

tovar yetkazib beriladigan (ish bajariladigan, xizmat ko‘rsatiladigan) hudud;

tovarni ishlab chiqaruvchi va tovar kelib chiqqan mamlakat to‘g‘risidagi axborot;

kafolat shartlari va muddati to‘g‘risidagi axborot;

tovar ishlab chiqarilgan yil (oziq-ovqatlar va tez buziladigan tovarlarning ishlab chiqarilgan kuni, oy, yili);

tovarning yaroqlilik muddati (kun, oy, yil);

ishni bajarish, xizmatni ko‘rsatish muddati;

tovarni (ishni, xizmatni) majburiy sertifikatlashtirish talab etiladigan hollarda muvofiqlik sertifikati to‘g‘risidagi axborot, shuningdek sanitariya-epidemiologik, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza haqidagi axborot;

qonunchilikka binoan lisenziyalashning yoki ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat olishning yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnomani yuborishning majburiy talabi mavjud bo‘lgan hollarda lisenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to‘g‘risidagi axborot.

19. Agar narx so‘rovi mobaynida ishtirokchi tomonidan taklif qilingan summa adliya organi (muassasasi) tomonidan tanlangan summadan 20 va undan ortiq foizga past bo‘lsa, ishtirokchi adliya organi (muassasasi) tomonidan tanlangan ofertaning summasi va o‘zi tomonidan taklif etilgan summaning farqi miqdoridagi qo‘sishimcha zakalatni oldindan kiritishi shartligini inobatga olgan holda adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo‘jalik ishlari bo‘yicha bo‘linmalari tomonidan ushbu xarid bo‘yicha ma’lumot rasmiylashtirib qo‘yilishi lozim.

20. Ijrochi va ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma’lumot (ularning nomi, STIR, taklif summalarini) g‘olib aniqlangan paytda davlat xaridlarining elektron tizimida aks

ettirilganda adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo‘jalik ishlari bo‘yicha bo‘linmalari xodimlari manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatlari yuzaga kelganda bevosita rahbariga xabar berishi lozim.

21. Adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo‘jalik ishlari bo‘yicha bo‘linmalari tomonidan elektron do‘konning qo‘srimcha sahifasidan foydalangan holda, davlat xaridlarini hududlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) kesimida mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ish bajaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar) o‘rtasida amalga oshirishi mumkin.

Bunda, elektron do‘konning qo‘srimcha sahifasidan foydalanish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

adliya organi (muassasasi) elektron do‘konda “milliy do‘kon” yacheysini tanlaydi;

elektron tizim adliya organi (muassasasi) joylashgan hudud bo‘yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilarning (ish bajaruvchilarning, xizmat ko‘rsatuvchilarning) takliflari joylashtirilgan qo‘srimcha sahifani ochadi.

“Milliy do‘kon” yacheysining “qidiruv” tugmasidan foydalanilganda elektron tizim adliya organi (muassasasi) joylashgan hududdagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ish bajaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar) tomonidan yetkazib beriladigan tovarni (ishni, xizmatni) qidiradi.

22. “Milliy do‘kon” orqali xaridlarni amalga oshirishda elektron tizim narxlar so‘rovi mexanizmini faqat adliya organi (muassasasi) joylashgan hududdagi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) mahalliy ishlab chiqaruvchilar (ish bajaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar) orasida yuborilishini ta’minlashi ustidan adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo‘jalik ishlari bo‘yicha bo‘linmalari .

### **3-§. Auksion orqali davlat xaridlarni amalga oshirish tartibi**

23. Boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan ausion (bundan buyon matnda auksion deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

tovarning standart xususiyatlarga ega bo‘lishi;

tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zaruratining mavjud emasligi;

adliya organ (muassasasi)lari uchun auksiondag‘i davlat xaridlari bir shartnomasi bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq bo‘lmasligi kerak.

24. Qonunning 52-moddasiga muvofiq xizmatlar va ishlarning davlat xaridi auksion obyekti bo‘la olmasligi sababli adliya organi (muassasasi) auksion orqali xarid qilishi mumkin emas.

25. Auksion vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 6-bobi va ushbu Nizomga 2-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

26. Adliya organi (muassasasi) auksion o‘tkazish haqida xaridlar reja-jadvaliga muvofiq portalga e’lon joylashtiradi.

27. Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon auksion g‘olibini aniqlangunga qadar kamida besh ish kun avval joylashtirilishi kerak.

28. Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

adliya organi (muassasasi)ning nomi va manzili, (adliya organi (muassasasi)ning ishonchi telefoni, pochta manzili, Telegram-kanali (“@anticorbot”) to‘g‘risidagi ma’lumotlar);

auksionning birinchi va oxirgi kuni (auksion o‘tkaziladigan davr);

auksion predmetining boshlang‘ich narxi;

ausion predmeti va uning xususiyati (ausion predmetining tasnifi);

tovarning miqdori;

tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;

tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);

tovarning amaldagi standart talabiga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi haqidagi talab;

tovar majburiy sertifikatlashtirilishi talab etiladigan hollarda, muvofiqlik sertifikati va sanitariya-epidemiologik xulosa mavjudligi to‘g‘risidagi talab;

zarur bo‘lganda, lisenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to‘g‘risidagi talab;

tovarning o‘ziga xos xususiy parametrlarini ifodalovchi alohida shartlar.

29. Agar auksion mobaynida ishtirokchi tomonidan taklif qilingan narx boshlang‘ich narxdan 20 va undan ortiq foizga past bo‘lsa, ishtirokchi boshlang‘ich narx va o‘zi tomonidan taklif etilgan narxning farqi miqdoridagi qo‘srimcha zakalatni oldindan kiritishi shartligini inobatga olgan holda adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo‘jalik ishlar bo‘yicha bo‘linmalari tomonidan ushbu xarid bo‘yicha ma’lumot rasmiylashtirib qo‘yilishi lozim.

30. Adliya organi (muassasasi) tomonidan auksion orqali davlat xaridlarini amalga oshirishda tovarlarni yetkazib berish muddati ularning miqdoridan, hajmidan, noyobligidan, ishlab chiqarishga va (yoki) respublika hududiga import

qilishga ketadigan vaqtidan va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yetti kundan kam bo‘lmasligi kerakligini inobatga olinishi lozim.

31. Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo‘lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo‘lsa, auksion o‘tkazilmagan deb hisoblanadi va g‘olib aniqlanmaydi. Adliya organi (muassasasi) tomonidan auksionni uch ish kuniga uzaytirishi yoki xaridni Qonun va mazkur Reglament talablariga muvofiq elektron do‘kon (belgilangan mezonlar doirasida) yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Eng yaxshi takliflarni tanlash**

#### **1-§. Tanlash vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish shartlari**

32. Eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g‘olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo‘ladi;

adliya organi (muassasasi) tanlashdagi davlat xaridlari bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravarigacha bo‘lgan miqdorni tashkil etadi.

33. Tanlash vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 8-bobi hamda ushbu Reglamentga 4-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi. Tanlash majburiy tartibda elektron shaklda o‘tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

34. Adliya organi (muassasasi)ga agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o‘tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat’i nazar tanlash orqali amalga oshirilishi kerak. Bunda adliya organi (muassasasi) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining olti ming barvari miqdoridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasiga (bundan buyon matnda Kompleks ekspertiza qilish markazi deb yuritiladi) kiritishi lozim.

#### **2-§. Tanlash o‘tkazishda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish**

35. Adliya organi (muassasasi) tanlashni o‘tkazish uchun toq sonli a’zolardan (kamida beshta kishidan) iborat xarid komissiyasini tuzadi.

36. Xarid komissiyasi a’zolarining tarkibi va soni olinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zgarishi mumkin.

37. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalg etish mumkin.

Bunda adliya organi (muassasasi) vakolathi organ vakilini adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi tarkibiga kiritishga yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

38. Adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasining mas’ul kotibi:

ishtirokchilarining takliflarini tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo‘yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar bo‘yicha ishtirokchilarining takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimida unga ochilgan shaxsiy kabinetni orqali kiritadi.

39. Adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko‘rib chiqish uchun xarid komissiyasining a’zolari va mas’ul kotibining muloqot qilish davlat xaridlarining elektron tizimidagi yopiq chat orqali amalga oshirilishi lozim.

40. Davlat xaridlarining elektron tizimidagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasining har bir a’zosi, shu jumladan, uning raisi xo‘jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlarni kiritishi shart.

41. Adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi raisining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo‘lsa, tanlashni o‘tkazish jarayoni davlat buyurtmachisi tomonidan yangi xarid komissiyasi raisi tayinlanguniga qadar to‘xtatiladi. Adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi a’zosida affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo‘lsa, unda ishtirok etishdan bosh tortishi lozim.

42. Adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasining har bir a’zosi o‘zining shaxsiy kabinetni orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Belgilangan muddatlarda adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasining a’zosi shaxsiy kabinetni orqali ovoz berishdan bo‘yin tovlagan taqdirda, u ovoz berishdan bosh tortgan deb tan olinadi. Adliya

organi (muassasasi) xarid komissiyasi raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.

43. Tanlash o'tkazish bo'yicha tanlash komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'limgan mas'ul kotibi tashkil etadi.

### **3-§. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ishlab chiqish va tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'ltonni joylashtirish**

44. Adliya organi (muassasasi) tomonidan tanlash o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo'jalik ishlari bo'yicha bo'linmalari tomonidan tanlash hujjatlarining, shartnoma va tanlash o'tkazish haqidagi e'ltonning matni ishlab chiqiladi.

45. Tanlash taklifining texnik va narx qismi bo'yicha adliya organi (muassasasi)ning tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun taklifning har bir qismini baholash ahamiyatiga qarab nisbiy qiymati belgilanadi.

46. Adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo'jalik ishlari bo'yicha bo'linmalari ishtirokchilarning tanlash takliflarini baholash usulini (eng past narx usulini yoki ball usulini) va mezonlarini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun kiritadi. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tanlash takliflarini baholash uchun qo'llaniladigan ballarning boshlang'ich qiymatlari belgilanishi mumkin va ulardan o'tmagan ishtirokchi tanlashdan chetlatilishi lozim.

47. Tanlash taklifining texnik qismi uchun miqdoriy yoki miqdoriy bo'limgan (ekspert) ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda baholash mezonlari belgilanadi.

48. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari namunaviy shakllarini to'ldirishda miqdoriy (o'lchov birligini belgilagan holda) va miqdoriy bo'limgan (ekspert) mezonlar adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

49. Ball usulidan foydalanganda tanlash taklifining har bir baholash mezonni bo'yicha nisbiy qiymat belgilanishi mumkin. Eng past narx usulidan foydalanganda ishtirokchining tanlash taklifi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlovchi mezonlar belgilanishi mumkin.

50. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida majburiy bo'lgan mezonlar belgilanishi mumkin. Bunda tanlash taklifining majburiy etib belgilangan mezonlarga mos kelmasligi ishtirokchini davlat xaridlarining elektron tizimi orqali tanlashning har qanday bosqichida chetlatilishi mumkin.

Bunda majburiy mezonlar belgilanishida Qonunning 34-moddasiga muvofiq ishtirokchilarga nisbatan raqobatni cheklovchi talablar kiritilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

51. Adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo‘jalik ishlari bo‘yicha bo‘linmalari tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini kelishish uchun elektron shaklda adliya organi (muassasasi)ning xarid komissiyasiga kiritadi.

52. Tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa quyidagi axborot bo‘lishi kerak:

tanlashni o‘tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang‘ich narxi;

tanlash o‘tkaziladigan joy manzili (adliya organi (muassasasi)ning ishonchli telefoni, pochta manzili, Telegram-kanali (“@anticorbot”) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar);

ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar;

adliya organi (muassasasi)ning ishtirokchilar bilan aloqada bo‘lish uchun bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxsining yoki boshqa xodimlarining F.I.O., lavozimi va manzili;

ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

taklifni rasmiylashtirishga doir talablar.

Tanlash o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon va (yoki) tanlashda ishtirok etish uchun taklif qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa axborotlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

53. Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan axborot;

ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalilaniladigan valyuta, to‘lov tartibi va yetkazib berish shartlari haqidagi axborot;

tanlashda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to‘g‘risidagi talab;

ishtirokchilarga tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

Qonuniga muvofiq ishtirokchilarning takliflarini baholash mezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;

tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

54. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga ularning ajralmas qismi bo'lgan shartnomaga loyihasi ilova qilinadi.

55. Adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo'jalik ishlari bo'yicha bo'linmalari tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini kelishish uchun elektron shaklda xarid komissiyasiga kiritadi.

56. Adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining majlisda yoki masofadan turib Qonun talablariga muvofiqligini ko'rib chiqadi va quyidagilarni belgilaydi:

tanlash takliflari qabul qilinadigan muddatlar;

tanlash takliflarini baholash usullari va mezonlari;

tanlash takliflari qismlarining va zarur hollarda texnik qismining har bir baholash mezonlarining nisbiy qiymati;

tanlash taklifini ta'minlash hajmi va shakli.

57. Tanlashni o'tkazish haqida qaror tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi tomonidan kelishilganidan so'ng qabul qilinadi.

58. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng xarid komissiyasi tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari qayta kelishilishi kerak.

59. Adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo'jalik bo'linmalarining mas'ul xodimi 58-bandda ko'rsatib o'tilgan tartibda kelishilgan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ERI bilan tasdiqlaydi.

60. Tasdiqlangan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shartnomaga loyihasi, shuningdek, tanlash o'tkazish haqidagi e'lon tanlash ishtirokchilarining takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida besh ish kuni oldin adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo'jalik ishlari bo'yicha bo'linmalari tomonidan davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

61. Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon qo'shimcha ravishda adliya organi (muassasasi)ning rasmiy veb-saytida yoki o'zining yuqori turuvchi adliya organi yoki muassasasining rasmiy veb-saytida, shuningdek ommaviy axborot vositalariga joylashtirilishi mumkin.

62. Zarur bo'lgan hollarda adliya organi (muassasasi)ning xarid komissiyasi qarori bilan tanlash takliflarini berish muddatini uzaytirishi yoki tanlash ishtirokchilariga tanlash takliflarining amal qilish muddatini ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

63. Adliya organi (muassasasining) tegishli xo'jalik ishlari bo'yicha bo'linmalari xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tanlashda ishtirok etish uchun

takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

64. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida adliya organi (muassasasi) har bir tovar (ish, xizmat) xarid qilish tartib-taomilining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishini e'lon qilishi mumkin. Bunday holda davlat buyurtmachisi turli tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tanlashning bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir tovar (ish, xizmat) uchun faqat bitta g'olib aniqlanishi mumkin. Har bir tovar (ish, xizmat) uchun g'olib xarid qilish tartib-taomilining shartlariga ko'ra alohida-alohida aniqlanadi.

65. Tanlash ishtirokchisi tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo'jalik bo'linmalari ochiq elektron chat orqali so'rov qabul qilib olishi va ularni ko'rib chiqishga masu'l hisoblanadi.

66. Adliya organi (muassasasi)ga so'rov tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

67. Adliya organi (muassasasi) tomonidan tanlash takliflarining ta'minlanishi zarurligi belgilagan taqdirda, ishtirokchi tanlash takliflari yuborilguniga qadar ta'minotning maqbulligini tasdiqlash to'g'risida ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rovga bir ish kuni ichida javob beradi.

#### **4-§. Tanlash natijalarini sarhisob qilish**

68. Tanlash adliya organi (muassasasi)ning xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rishlari mumkin.

69. Adliya organi (muassasasi)ning xarid komissiyasi ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllar uning tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda davlat xaridlarining elektron tizimidagi to'ldirilishi majburiy bo'lgan elektron maydonlar to'ldirilganligini ko'rib chiqishi kerak.

70. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang‘ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to‘ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllardagi ma’lumotlarning to‘liqligi va muvofiqligini adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasining mas’ul kotibi tomonidan tekshiriladi.

71. Agar tanlash taklifi Qonunning va tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlash taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo‘yicha organi (muassasasi) xarid komissiyasi mas’ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan adliya organi (muassasasi)ning xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo‘jalik ishlari bo‘yicha bo‘linmalari va xarid komissiyasining kotibi ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelmaganligi to‘g‘risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuborilishi ta’milanishi lozim.

Tanlash g‘olibini aniqlash uchun tanlash takliflarini baholash tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi.

72. Tanlash takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasining mas’ul kotibi tanlash ishtirokchilaridan ularning tanlash takliflari yuzasidan tushuntirishlar so‘rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o‘tkaziladi.

73. Tanlash taklifi tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari bilan belgilangan muddat mobaynida kuchda qoladi.

74. Tanlash taklifining miqdoriy ko‘rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

75. Miqdor ko‘rsatkichlariga ega bo‘lmagan taklifning texnik qismining mezonlari bo‘yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash adliya organi (muassasasi)ning xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

76. Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda:

tanlash taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to‘plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);

tanlash takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko‘ra tanlashda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g‘olib sifatida aniqlaydi.

Tanlash takliflarini ball usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko‘ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to‘plagan bo‘lsa, eng past narx taklif etgan ishtirokchi g‘olib deb topiladi.

Tanlash takliflarini eng past narx usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko‘ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to‘plagan bo‘lsa, texnik qismi bo‘yicha eng maqbul taklifni bergan ishtirokchi g‘olib deb topiladi.

Zaxiradagi g‘olibni aniqlash mazkur bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

77. Tanlash takliflarini ko‘rib chiqish hamda baholash natijalari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan dastlabki elektron bayonnomada qayd etiladi va tanlash o‘tkazish bo‘yicha organi (muassasasi)ning xarid komissiyasi a’zolari tomonidan ERIdan foydalangan holda imzolanadi.

Bunda dastlabki elektron bayonnomada quyidagi axborot bo‘lishi kerak:

tanlash takliflari ko‘rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt;

xarid komissiyasi a’zolarining va tanlash ishtirokchilari vakolatliliklarining tarkibi;

tanlash takliflari ko‘rib chiqilgan tanlash ishtirokchilari;

xar bir tanlash taklifini baholash natijalarining yoyilmasi;

tanlash takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko‘rsatilgan va asoslangan holda rad etilgan tanlash ishtirokchilari;

tanlash g‘olibi to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida ma’lumot;

tanlash g‘olibining nomi (yuridik shaxslar uchun), F.I.O. (jismoniy shaxslar uchun), joylashgan joyi (pochta manzili).

78. Dastlabki elektron bayonnomma u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimida muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtiriladi.

79. Tanlashning istalgan ishtirokchisidan dastlabki elektron bayonnomma e’lon qilinganidan so‘ng organi (muassasasi)ga tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha davlat xaridlarining elektron tizimi orqali kelib tushgan e’tirozlar adliya organi (muassasasi)ning xarid komissiyasi tegishli tartibda ko‘rib chiqishi lozim.

80. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e’tirozlar tushmagan bo‘lsa, bu to‘g‘risida adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasining tegishli majlisi elektron bayonnomasi rasmiylashtiriladi va davlat buyurtmachisi bilan g‘olib deb topilgan ishtirokchi o‘rtasida shartnoma tuziladi.

81. Tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha tanlash ishtirokchilaridan e’tirozlar tushganda, adliya organi (muassasisi)ning xarid komissiyasi e’tirozlarni ikki ish kuni ichida ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

82. Adliya organi (muassasisi) tomonidan adliya organi (muassasisi)ning xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to‘g‘risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi elektron bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

## **6-§. Tanlash natijalari bo‘yicha shartnoma tuzish**

83. Adliya organi (muassasasi) tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va o‘zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida g‘olib aniqlangan vaqtidan boshlab o‘n ish kunidan kechiktirmasdan tuzishi kerak.

84. Adliya organi (muassasasi)ning tegishli moliya-iqtisod bo‘linmalari tomonidan tanlashni o‘tkazish natijalariga ko‘ra shartnoma elektron shaklda tuziladi hamda shartnomalarning yagona reyestriga kiritishlari lozim.

85. Adliya organi (muassasasi) tomonidan xodimlarni fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma asosida jalb etishni nazarda tutuvchi xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o‘tkazilishi lozim.

Bunda adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish, tanlash ishtirokchilari tomonidan takliflarni berish, tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash, g‘olib va zaxira g‘olibni aniqlash, tanlash natijalarini rasmiylashtirish Qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerak.

## **4-bob. Tender o‘tkazish tartib-taomillari**

### **1-§. Tender o‘tkazish shartlari**

86. Tender vositasidagi davlat xaridlari Qonunning 8-bobi hamda ushbu Reglamentga 4-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi. Tender elektron shaklda o‘tkaziladi.

87. Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o‘zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g‘olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o‘z ichiga oladi;

adliya organi (muassasasi) uchun tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnomaga bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi.

Tender majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

88. Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon faqat tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari yuzasidan Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobjiy xulosasi olinganidan keyin joylashtiriladi.

## **2-§. Tenderni o'tkazishda tender komissiyasi faoliyatini tartibga solish**

89. Tender o'tkazish uchun adliya organi (muassasasi) huzurida toq sonli (yetti kishidan kam bo'lмаган) a'zolardan iborat xarid komissiyasi (bundan buyon matnda tender komissiyasi deb yuritiladi) tuziladi.

Adliya organi (muassasasi) tenderni o'tkazishda xarid komissiyasi Qonunning 20 va 65-moddalarida belgilangan tartibda shakllantiriladi va tarqatib yuboriladi.

90. Tender komissiyasining tezkor faoliyatini uning mas'ul kotibi tashkil etadi.

91. Xarid komissiyasining mas'ul kotibi:

ishtiroychilarining takliflarini tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini rasmiylashtirish talablariga mos kelishi bo'yicha tekshirishni amalga oshiradi va tekshirish natijalarini xarid komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi;

tasdiqlangan mezonlar bo'yicha ishtiroychilarining takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimida joylashtiradi.

92. Adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga o'z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.

93. Xarid komissiyasining vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun xarid komissiyasining a'zolari va mas'ul kotibining muloqot qilish imkoniyati davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yopiq chat orqali ta'minlanadi.

94. Davlat xaridlarining elektron tizimidagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan, uning raisi xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart. Operator xarid komissiyasi a'zolari tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha javob beradi.

95. Adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi raisining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, tender o'tkazish jarayoni Adliya organi (muassasasi) tomonidan yangi xarid komissiyasi raisi tayinlanguniga qadar to'xtatiladi. Adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi a'zosida affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, unda ishtirok etishdan bosh tortishi lozim.

96. Xarid komissiyasining har bir a'zosi o'zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin. Belgilangan muddatlarda xarid komissiya a'zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bosh tortgan taqdirda, uning ovozi betaraf sifatida qabul qilinadi. Xarid komissiya raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.

### **3-§. Tender hujjatlarini ishlab chiqish va tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'ltonni joylashtirish**

97. Adliya organi (muassasasi) tomonidan tanlash o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng adliya organi (muassasasi)ning tegishli xo'jalik ishlari bo'yicha bo'linmalari tomonidan tender hujjatlarining, shartnoma va tender o'tkazish haqidagi e'ltonning matni ishlab chiqiladi.

98. Tender taklifining texnik va narx qismi bo'yicha Adliya organi (muassasasi)ning tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun taklifning har bir qismini baholash ahamiyatiga qarab nisbiy qiymati belgilanadi.

99. Adliya organi (muassasasi) ishtirokchilarining tender takliflarini baholash usulini (eng past narx usulini yoki ball usulini) va mezonlarini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun kiritadi. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tender takliflarini baholash uchun qo'llaniladigan ballarning boshlang'ich qiymatlari belgilanishi mumkin va ulardan o'tmagan ishtirokchi tenderdan chetlatiladi.

100. Tender taklifining texnik qismi uchun miqdoriy yoki miqdoriy bo'limgan (ekspert) ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda baholash mezonlari belgilanadi.

101. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining namunaviy shakllarini to'ldirishda miqdoriy (o'lchov birligini belgilagan holda) va miqdoriy bo'limgan (ekspert) mezonlar xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadi.

102. Ball usulidan foydalanganda tender taklifining har bir baholash mezonи bo'yicha nisbiy qiymat belgilanishi mumkin. Eng past narx usulidan foydalanganda

ishtirokchining taklifi tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlovchi mezonlar belgilanishi mumkin.

103. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida majburiy bo‘lgan mezonlar belgilanishi mumkin. Bunda tender taklifining majburiyligi belgilangan mezonlarga mos kelmasligi ishtirokchining davlat xardilarining elektron tizimi orqali tenderning har qanday bosqichida chetlatilishiga olib keladi.

104. Adliya organi (muassasasi) tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini kelishish uchun elektron shaklda xarid komissiyasiga kiritadi.

105. Tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’lon quyidagi axborotni o‘z ichiga olishi kerak:

tenderni o‘tkazish shakli;

tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang‘ich narxi;

tender o‘tkaziladigan joyning manzili;

tender ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar;

adliya organi (muassasasi)ning ishtirokchilar bilan bog‘lanish uchun aloqa bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;

takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;

tender taklifini rasmiylashtirishga doir talablar.

Tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa axborotni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

106. Xarid komissiyasi o‘zining majlisida yoki masofadan turib tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari loyihasining Qonun talablariga muvofiqligi bo‘yicha ko‘rib chiqadi va quyidagilarni belgilaydi:

tender takliflari qabul qilinadigan muddatlar;

tender takliflarini baholash usullari va mezonlari;

tender taklifi qismlarining va zarur hollarda texnik qismining har bir baholash mezonini bo‘yicha nisbiy qiymati;

tender taklifini ta’minlash hajmi va shakli.

107. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari loyihasi unda belgilangan talablar bilan birga muhokamaga qo‘yiladi.

108. Maxsus bo‘lim tomonidan tyender hujjatlarida quyidagilar mavjudligi ko‘rib chiqiladi:

tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e’londa ko‘rsatilgan axborot;

shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalananidigan valyuta hamda to‘lov tartibi haqidagi axborot;

tenderda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyligi to‘g‘risidagi talab;

tender ishtirokchisi taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi haqidagi axborot;

tender ishtirokchilariga tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;

texnik topshiriq;

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tender ishtirokchilarining takliflarini baholash myezonlari va ko‘rib chiqish tartibi;

tender ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha arizani taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

109. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun Kompleks ekspertiza qilish markaziga kiritiladi.

110. Xarid komissiyasi o‘zining majlisida yoki masofadan turib tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari loyihasining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi bo‘yicha ko‘rib chiqadi va quyidagilarni belgilaydi:

tender takliflari qabul qilinadigan muddatlar;

tender takliflarini baholash usullari va mezonlari;

tender taklifi qismlarining va zarur hollarda texnik qismining har bir baholash mezoni bo‘yicha nisbiy qiymati;

tender taklifini ta’minalash hajmi va shakli.

111. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari loyihasi unda belgilangan talablar bilan birga muhokamaga qo‘yiladi.

112. Xarid komissiyasi tomonidan tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari loyihasi ma’qullangan holda tender o‘tkazish haqida qaror qabul qilinadi.

113. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari ma’qullanmagan hollarda ular qayta ishslash uchun qaytarib yuborilishi yoki xarid komissiyasi majlisida qayta ishlanishi mumkin.

114. Ma’qullangan tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarini adliya organi (muassasasi) ERI bilan tasdiqlaydi.

115. Tasdiqlangan tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari, shuningdek, tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon tender ishtirokchilaridan tender takliflarini qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o‘n ikki ish kuni oldin va ko‘pi bilan o‘ttiz ish kuni oldin davlat xaridlarining elektron tizimiga adliya organi (muassasasi) tomonidan joylashtiriladi.

116. Tender o'tkazishni amalga oshirish haqidagi e'lon qo'shimcha ravishda adliya organi (muassasasi)ning rasmiy veb-saytida yoki o'zining yuqori turuvchi organi rasmiy veb-saytiga, shuningdek ommaviy axborot vositalariga joylashtirilishi mumkin.

117. Zarur bo'lgan hollarda adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi qarori bilan tender takliflarini berish muddatini uzaytirishi yoki tender ishtirokchilariga tender takliflarining amal qilish muddatini ma'lum vaqtga uzaytirish taklifi bilan murojaat qilishi mumkin.

118. Adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida bir ish kuni oldin tender bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

119. Agarda adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tender bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinganda, bunda ushbu tenderda takliflar berish tugaydigan muddat kamida o'n ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda, agar e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tender o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi.

120. Tender hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish jarayonida tovarni (ishni, xizmatni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

121. Tender hujjatlarida adliya organi (muassasasi) har bir tovarni (ishni, xizmatni) xarid qilishda alohida lot sifatida e'lon qilishi mumkin. Bu holatda adliya organi (muassasasi) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish uchun tending bir nechta ishtirokchisi bilan shartnomalar tuzishi mumkin, bunda har bir lot uchun faqat bitta g'olib aniqlanishi mumkin.

#### **4-§. Tenderda ishtirok etish uchun taklif berish tartibi**

122. Tender ishtirokchilari tender bo'yicha elektron takliflarni o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali e'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.

123. Ishtirokchining tender taklifini tashkil etuvchi elektron hujjatlar operator tomonidan belgilangan namunaviy shakllar asosida taqdim etiladi. Davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtirilgan tender taklifi ishtirokchi tomonidan tasdiqlanadi.

124. Tender taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin.

Bunda ishtirokchilarning tender takliflari davlat xaridlarining elektron tizimida namunaviy shakllarga muvofiq hujjatlarni biriktirish orqali taqdim etiladi.

Ishtirokchining tender takliflarida ko'rsatilgan ma'lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

125. Tender takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar ular tender ishtirokchilari, shuningdek, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rlishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga operator javobgar hisoblanadi.

126. Tender ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta tender taklifini berishga haqli.

127. Tender ishtirokchisi taqdim etilayotgan axborot (ma'lumot) va hujjatlarning haqiqiyligi va to'g'riliqi uchun javob beradi.

128. Tender ishtirokchisi tender takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tender taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

129. Joylashtirilgan e'londa ko'rsatilgan muddat va vaqtida davlat xaridlarining elektron tizimi tender takliflarini qabul qilishni to'xtatadi.

130. Tender takliflari tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatilgan muddatda o'z kuchida qoladi.

131. Tender ishtirokchisi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan davlat buyurtmachisiga ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli.

132. Adliya organi (muassasasi) so'rov tushgan sanadan e'tiboran ikki ish kuni ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarining qoidalariga doir tushuntirishlar ularning mazmun-mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

133. Adliya organi (muassasasi) tomonidan tender takliflarining ta'minlanishi zarurligi belgilagan taqdirda, ishtirokchi tender takliflari yuborilguniga qadar ta'minotning maqbulligini tasdiqlash to'g'risida ochiq elektron chat orqali so'rov yuborishga haqli. Adliya organi (muassasasi) bunday so'rovga bir ish kuni ichida javob beradi.

## **5-§. Tender natijalarini sarhisob qilish**

134. Tender xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

135. Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan hujjatlar uning tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda davlat xaridlarining elektron tizimidagi to'ldirilishi majburiy bo'lgan elektron maydonlar to'ldirilgan bo'lishi kerak.

136. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxning boshlang‘ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to‘ldirilganligini hamda biriktirilgan hujjatlarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang‘ich narxdan yuqori bo‘lsa, shuningdek, to‘ldirilishi majburiy bo‘lgan to‘ldirilmagan maydonlar mavjud bo‘lsa yoki biriktirilishi majburiy bo‘lgan hujjatlar mavjud bo‘lmasa, davlat xaridlarining elektron tizimi aniq sababni ko‘rsatgan holda ishtirokchining tender taklifini rad etadi. Biriktirilgan hujjatlardagi ma’lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas’ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

137. Tender takliflarini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:  
tender taklifining tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga mos ravishda rasmiylashtirilganligini tekshirish;

ishtirokchining malaka talablarga (tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa) muvofiqligini baholash;  
tender taklifining texnik qismini baholash;  
tender taklifining narx qismini baholash.

Bunda davlat xaridlarining elektron tizimi tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so‘ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta’minlaydi.

138. Tender taklifi tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo‘yicha xarid komissiyasi mas’ul kotibining qarori uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

139. Ishtirokchining tender taklifi talablarga mos kelmaganligi to‘g‘risidagi qaror ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

140. Tender g‘olibini aniqlash uchun tender takliflarini baholash tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan mezonlar va usul asosida amalga oshiriladi.

141. Tender takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi mas’ul kotibi tender ishtirokchilaridan ularning tender takliflari yuzasidan tushuntirishlar so‘rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o‘tkaziladi.

142. Tender taklifining miqdoriy ko‘rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

143. Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'lмаган taklifning texnik qismining mezonlari bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

144. Miqdor ko'rsatkichlariga asoslangan mezonlarni baholashda:

tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ko'rsatkichlarning eng kam va eng ko'p qiymatlari belgilanishi mumkin;

miqdor ko'rsatkichlari eng kam va eng ko'p hisobga olinadigan qiymatlari oralig'ida bo'lган ishtirokchilar uchun ball koeffisiyenti uning miqdor ko'rsatkichining eng kam va eng ko'p hisobga olinadigan qiymatlarining farqiga bo'lган nisbatini aniqlash orqali hisoblanadi;

agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdor ko'rsatkichi tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlarga muvofiq eng kam hisobga olinadigan qiymatdan kam bo'lsa, ishtirokchiga eng kam ball qo'yiladi;

agar ma'lum bir mezon bo'yicha ishtirokchining miqdor ko'rsatkichi eng ko'p hisobga olinadigan qiymatdan yuqori bo'lsa, uning ko'rsatkichi eng ko'p hisobga olinadigan qiymatdan qay darajada yuqoriligidan qat'i nazar unga ushbu mezon bo'yicha eng yuqori ball beriladi;

miqdoriy yoki miqdoriy bo'lмаган (ekspert) mezonni baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan ballni ushbu mezonnинг hisobga olinadigan qiymatiga ko'paytirish orqali avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

145. Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xarid komissiyasi ishtirokchilarga shartnomani bajarish uchun zarur professional va texnik malaka ma'lumotlariga, kasbiy va texnik kompetensiyaga, moliyaviy resurslarga, jihozlarga va boshqa moddiy imkoniyatlarga, boshqaruv malakasiga, ishonchlilikka, tajribaga va obro'ga, shuningdek, inson resurslariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun qo'shimcha mezon va talablarni belgilash huquqiga ega.

Bunda ishtirokchilarni kamsitishga, savdolarning bitta yoki bir nechta ishtirokchisiga savdolarda qatnashish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berishga, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lган mezonlarni, talablarni va tartib-taomillarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

146. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida tender ishtirokchisining malaka talablariga mos kelishini tasdiqlovchi hujjatlarning davlat xaridlarining elektron tizimiga biriktirilishi nazarda tutilishi mumkin. Adliya organi (muassasasi) tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilmagan mezonlar bo'yicha ishtirokchining malakasini baholashga yoki tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga haqli emas.

147. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda:

tender taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to‘plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);

tender takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko‘ra tenderda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g‘olib sifatida aniqlaydi.

Tender takliflarini ball usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko‘ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to‘plagan bo‘lsa, eng past narx taklif etgan ishtirokchi g‘olib deb topiladi.

Tender takliflarini eng past narx usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko‘ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to‘plagan bo‘lsa, texnik qismi bo‘yicha eng maqbul taklifni bergen ishtirokchi g‘olib deb topiladi.

Zaxiradagi g‘olibni aniqlash mazkur bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

148. Xarid komissiyasi a’zolari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan yig‘ilishning elektron bayonnomalarini ERIdan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko‘chirma davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda e’lon qilinadi.

149. Tender takliflarini ko‘rib chiqish va baholash bayonnomasida:

tender takliflari ko‘rib chiqiladigan hamda baholanadigan sana va vaqt to‘g‘risidagi;

hozir bo‘lgan xarid komissiyasi a’zolarining va tender ishtirokchilari vakolatli vakillarining tarkibi haqidagi;

tender takliflari ko‘rib chiqilgan tender ishtirokchilari to‘g‘risidagi;

xar bir tender takliflarini baholash natijalarining yoyilmasi haqidagi;

tender takliflari ularni rad etishning aniq sabablari ko‘rsatilgan va asoslangan holda rad etilgan tender ishtirokchilari haqidagi;

tender g‘olibi (zaxira g‘olibi) to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqidagi;

tender g‘olibining nomi (yuridik shaxs uchun), familiyasi, ismi, otasining ismi (jismoniy shaxs uchun), joylashgan joyi (pochta manzili) haqidagi axborot bo‘lishi kerak.

150. Adliya organi (muassasasi) g‘olib bo‘lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda tenderni bekor qilish huquqiga ega. Tender bekor qilingan taqdirda adliya organi (muassasasi) davlat xaridlarining elektron tizimida mazkur qarorning asoslangan sabablarini e’lon qiladi.

151. Adliya organi (muassasasi) tender bekor qilinganligi uchun javobgar bo‘lmaydi, bundan tender davlat buyurtmachisining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) oqibatida bekor qilingan hollar mustasno.

### **7-§. Tender natijalari bo‘yicha shartnoma tuzish**

152. Tender natijalari bo‘yicha shartnoma tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko‘rsatilgan shartlar asosida g‘olib aniqlangan vaqtdan boshlab o‘n ish kunidan kechiktirmasdan tuziladi.

153. Davlat buyurtmachisi tender shartlariga muvofiq qabul qilgan ta’mimat summasi yoki ta’minotiga oid boshqa hujjatlar quyidagi holatlardan biri ro‘y bergen taqdirda, ishtirokchiga yoki ijrochiga darhol qaytarilishini ta’minlaydi:

taklifni ta’minotiga oid hujjatning amal qilish muddati tugagan bo‘lsa;

shartnomaning kuchga kirishi va ushbu shartnomaning bajarilishi ta’milanishi, agar bunday ta’minalash davlat xaridi shartlarida talab etilsa;

davlat xaridlari bekor qilinsa;

takliflarni yuborishning oxirgi muddati tugaguniga qadar taklifning chaqirib olinishi, agar davlat xaridi shartlarida bunday qaytarib olishga yo‘l qo‘yilmasligi aytib o‘tilmagan bo‘lsa.

154. Tender ishtirokchilari tender shartlari va tenderni o‘tkazish tartib-taomillari buzilgan holatlarda tender natijalaridan belgilangan tartibda shikoyat qilishlari mumkin.

155. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

156. Xarid komissiyasining o‘z vakolati doirasida qabul qiladigan qarorlari Qonunning 20-moddasiga asosan barcha ishtirokchilar uchun majburiy hisoblanadi.

157. Tender natijalari bo‘yicha tuzilgan shartnoma elektron hujjat shaklida tuziladi va operator tomonidan Shartnomalarning yagona reyestriga kiritiladi.

158. Buyurtmachilar tomonidan xodimlarni fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma asosida jalb etishni nazarda tutuvchi xarid qilish tartib-taomillarini elektron shaklda o‘tkazish majburiy hisoblanmaydi.

Bunda xarid komissiyasi faoliyatini tartibga solish, tender ishtirokchilari tomonidan takliflarni berish, tender ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash, g‘olib va zaxira g‘olibni aniqlash, tender natijalarini rasmiylashtirish Qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **5-bob. Yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan davlat xaridlari**

### **1-§. Yagona yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzish asoslari**

159. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlari Qonunning 71-moddasida belgilangan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

160. Adliya organi (muassasasi) to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirishi shart, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

161. To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzilganligi to‘g‘risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo‘lsa, ushbu shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

162. Adliya organi (muassasasi) ushbu paragrafda nazarda tutilgan davlat xaridlarini amalga oshirish chog‘ida xarid qilish tartib-taomillarining boshqa raqobatli turlaridan ham Qonun va ushbu Nizom talablariga muvofiq foydalanishi mumkin.

163. Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma assosida amalga oshirishga ruxsat berilsa, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming (byudjet buyurtmachilari uchun olti ming) baravari miqdorigacha bo‘lgan shartnoma va shartnomaga oid qo‘srimcha kelishuvlar Kompleks ekspertiza qilish markazida kompleks ekspertizadan o‘tkazilmaydi.

### **2-§. Yagona yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish**

164. Yagona yetkazib beruvchilardan xaridni amalga oshirish uchun davlat buyurtmachilari yagona yetkazib beruvchilar reyestridan foydalanadi.

165. Yagona yetkazib beruvchidan tovar (ish, xizmat) olish zarur bo‘lgan taqdirda, yetkazib beruvchi hamda adliya organi (muassasasi) o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuziladi va bu shartnoma to‘g‘risidagi axborot u tuzilgan paytdan e’tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga joylashtirilishi lozim.

## **6-bob. Adliya organi (muassasasi)lar bilan tuzilgan shartnomalar reyestri**

166. Shartnomalarning yagona reyestri vakolatli organ tomonidan davlat xaridlarining elektron tizimidan foydalangan holda yuritiladi.

167. Shartnomalarining yagona reyestri elektron do'kon, auksion, tanlash, tender, hadli kelishuv natijalari va to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar, shu jumladan, yagona yetkazib beruvchidan amalga oshirilgan xaridlar yakunlari, shuningdek, qonunchilikka muvofiq tuzilgan boshqa davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha shakllantiriladi.

168. Elektron do'kon, auksion, tanlash, tender va hadli kelishuv orqali tuzilgan shartnomalar davlat xaridlarining elektron tizimida ro'yxatga olinganidan so'ng avtomatik rejimda Shartnomalarining yagona reyestriga kiritiladi.

169. To'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar adliya organi (muassasasi) tomonidan maxsus axborot portaliga kiritilgandan so'ng avtomatik rejimda axborot shakllantiriladi va Shartnomalarining yagona reyestriga kiritiladi.

170. Shartnomalarining yagona reyestriga Qonunning 47-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumotlar kiritiladi.

171. Shartnomalarining yagona reyestridagi axborot tanishib chiqish uchun bepul va ochiq bo'lishi kerak.

172. Maxsus axborot portali va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi o'rtaisdagi ma'lumotlar bazasi elektron hamkorligi orqali davlat buyurtmachilari bilan tuzilgan Shartnomalarining yagona reyestri bo'yicha onlayn ma'lumot almashinushi amalga oshiriladi.

173. Qaysi shartnomalar to'g'risidagi axborot Shartnomalarining yagona reyestriga kiritilmagan bo'lsa, o'sha shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

## **7-bob. Adliya organi (muassasasi) ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan tovarlarni (ish, xizmat) qabul qilish komissiyasi**

174. Adliya organi (muassasasi) toq sonli a'zolardan (kamida uchta kishidan) iborat ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan tovarlarni (ish, xizmat) qabul qilish komissiyasi tuzadi.

175. Adliya organi (muassasasi) ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan tovarlarni (ish, xizmat) qabul qilish komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjalarda yoki shartnomada belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelishini nazorat qilish hamda dalolatnoma asosida qabul qilib olish;

yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo‘yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmagan takdirda nuqson dalolatnomasi asosida adliya organi (muassasasi)ning vakolatli bo‘linmasini xabardor qilish.

176. Davlat xaridlari natijalari bo‘yicha xarid qilingan tovarlar (mahsulot yetkazib berish, xizmat ko‘rsatish, ish bajarish)ni qabul qilish adliya organi va muassasasidagi turli tarkibiy bo‘linmalarining kamida uch nafar xodimi tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, tovarlar (mahsulot yetkazib berish, xizmat ko‘rsatish, ish bajarish)ning shartnomada belgilangan talablarga muvofiqligi bo‘yicha vedio va foto materiallar bilan tasdiqlanishi lozim.

### **8-bob. Yakuniy qoidalar**

177. Davlat xaridlarini rasmiylashtirish, tuzilgan shartnomalar bo‘yicha hisob-kitob qilish, shartnomaviy majburiyatlar bajarilishini monitoring qilish, shikoyatlarni, nizo va kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish hamda xarid qilish tartib-taomillarining davlat nazorati qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

178. Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo‘yicha tuzilgan shartnomaga qo‘srimcha kelishuv uning muhim shartlarini o‘zgartirmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilishi mumkin.

179. Adliya organi (muassasasi) va davlat xaridlarining elektron tizimi operatori tomonidan xarid qilish tartib-taomiliga oid barcha hujjatlar belgilangan muddatlarda saqlanishi lozim.

180. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Adliya organlari va muassasalarida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish reglamentiga 1-ilova

**Elektron do'kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish  
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Ishtirokchi	Elektron do'konga o'z ofertasini o'n besh ish kuniga joylashtiradi.	Ixtiyoriy ravishda
2-bosqich	Adliya organi (muassasasi)	Elektron do'konda ishtirokchilarning ofertalarini o'rganish yo'li bilan o'zi uchun zarur bo'lgan tovarni (ishni, xizmatni) tanlaydi va narx so'rovi mexanizmidan foydalanadi.	Ixtiyoriy
3-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	Tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchiga, shuningdek, elektron do'konda o'xhash tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) taklif etayotgan barcha ishtirokchilarga narxlar so'rovi mexanizmini amalga oshirgan holda xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish to'g'risida takliflarni yuboradi.	Avtomatik ravishda
4-bosqich	Takliflarni olgan ishtirokchi	Narxlar so'rovida ishtirok etish to'g'risida taklif tushgandan so'ng o'z takliflarini berishi mumkin.	Qirq sakkiz soat ichida
5-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ishtirokchilar tomonidan berilgan narx bo'yicha takliflarni taqqoslashni amalga oshiradi.</li> <li>2. Adliya organi (muassasasi) tomonidan tanlangan ishtirokchining ofertasida bayon etilgan shartlarga muvofiq hamda ishtirokchilar tomonidan taklif etilgan eng past narxda shartnomani shakllantiradi.</li> <li>3. Tuzilgan shartnomaga to'g'risidagi ma'lumotlarni shartnomalarning yagona reyestriga kiritadi.</li> <li>4. Agar xarid qilish tartib-taomilining yakuniga ko'ra faqat tanlab olingan ofertani taklif qilgan ishtirokchigina ishtirok etgan bo'lsa, adliya organi (muassasasi) va ishtirokchi o'rtaida elektron shaklda savdolashish imkonini yaratadi va savdolar yakuniga ko'ra shartnomani shakllantiradi yoki xarid qilish tartib-taomilini o'tkazilmagan deb topadi.</li> </ol>	Avtomatik ravishda
6-bosqich	Adliya organi (muassasasi) ning qabul qilib olish komissiyasi	Adliya organi (muassasasi) tomonidan elektron do'kon orqali xarid qilingan tovarni (ishni, xizmatni) e'lon va shartnomada ko'rsatib o'tilgan shartlar, talablar va boshqa parametrlarga muvofiqligi yuzasidan tegishli tartibda qabul qilgandan so'ng to'lov amalga oshirilishi mumkin.	Shartnomada belgilangan muddatlarda

Adliya organlari va muassasalarida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish reglamentiga 2-ilova

**Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish**  
**SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Adliya organi (muassasasi)	Davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat xaridlarining reja-jadvaliga muvofiq e'lon joylashtiradi.	Ixtiyoriy ravishda
2-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	E'lon joylashtirilgan vaqtidan e'tiboran auksion bo'yicha ishtirokchilarning takliflarini qabul qilishni boshlaydi.	E'lon joylashtirilgan vaqtidan boshlab kamida besh ish kuni davomida
3-bosqich	Ishtirokchi	Auksion davomida narx bo'yicha takliflarni cheklanmagan miqdorda berishi mumkin.	E'londa ko'rsatilgan muddat davomida
4-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	<p>1. Auksion yakuniga ko'ra berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan ishtirokchini auksion g'olib sifatida saralab oladi hamda u va adliya organi (muassasasi) o'rtaсидаги шартномани шаклантиради.</p> <p>2. Tuzilgan шартнома тоғ'рисидаги ма'lumotlarni Шартномалarning yagona reyestriga kiritadi.</p> <p>3. Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, auksionni o'tkazilmagan deb hisoblanadi.</p>	Avtomatik ravishda
5-bosqich	Adliya organi (muassasasi)	Adliya organi (muassasasi) tomonidan elektron do'kon orqali xarid qilingan tovarni (ishni, xizmatni) e'lon va shartnomada ko'rsatib o'tilgan shartlar, talablar va boshqa parametrlarga muvofiqligi yuzasidan tegishli tartibda qabul qilgandan so'ng to'lov amalga oshirilishi mumkin.	Shartnomada belgilangan muddatlarda
6-bosqich	Adliya organi (muassasasi) ning qabul qilib olish komissiyasi	Shartnomada belgilangan talablar va parametrlarga muvofiq tovar (ish, xizmatlarni) qabul qilib olish.	Shartnomada belgilangan muddatlarda

Adliya organlari va muassasalarida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish reglamentiga 3-ilova

**Eng yaxshi takliflarni tanlash vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish  
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Adliya organi (muassasasi)	<p>1. Toq sonli va kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasini tuzadi.</p> <p>2. Xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.</p> <p>3. Tanlash o'tkazish haqidagi e'lon, tanlash bo'yicha xarid qilish hujjati loyihasi matnnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun elektron shaklda kiritadi.</p>	Zaruratga ko'ra
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqadi va kelishadi.	Zaruratga ko'ra
3-bosqich	Adliya organi (muassasasi)	Xarid komissiyasi bilan kelishilgan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ERI bilan tasdiqlaydi.	Zaruratga ko'ra
4-bosqich	Adliya organi (muassasasi)	Tasdiqlangan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shuningdek, tanlash o'tkazish haqidagi e'lonni davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.	Takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida besh ish kuni oldin
5-bosqich	Ishtirokchi	Tanlash bo'yicha elektron taklifni o'zining shaxsiy kabineti orqali taqdim etadi.	E'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay
6-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	<p>1. Tanlash taklifi ishtirokchilar, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari va boshqa shaxslar tomonidan ko'rilibshiga yo'l qo'ymaydi, bundan ushbu taklifni taqdim etgan ishtirokchi mustasno.</p> <p>2. Ishtirokchi taklif etayotgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi.</p> <p>3. Ishtirokchi tomonidan taklif etilayotgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki biriktirilishi majburiy bo'lgan fayllar mavjud bo'imsa, rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi.</p>	Tanlash takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar

<b>7-bosqich</b>	<b>Davlat xaridlarining elektron tizimi</b>	Ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolariga ko'rish imkoniyatini beradi.	Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so'ng darhol
<b>8-bosqich</b>	<b>Xarid komissiyasining mas'ul kotibi</b>	1. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlash taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshiradi. 2. Tanlash taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha qarorni uning asoslangan sabablari bilan tasdiqlash uchun xarid komissiyasiga kiritadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ishkunidan ko'p bo'limgan muddatda
<b>9-bosqich</b>	<b>Davlat xaridlarining elektron tizimi</b>	Ishtirokchining tanlash taklifi talablarga mos kelмаганлиги тоғ'рисидаги qarorni ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboradi.	Qaror qabul qilingan kunda
<b>10-bosqich</b>	<b>Davlat xaridlarining elektron tizimi</b>	Tanlash taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ishkunidan ko'p bo'limgan muddatda
<b>11-bosqich</b>	<b>Xarid komissiyasi</b>	Miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'limgan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo'yicha ishtirokchilarining takliflarini ovoz berish orqali taqqoslashni amalga oshiradi va baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ishkunidan ko'p bo'limgan muddatda
<b>12-bosqich</b>	<b>Davlat xaridlarining elektron tizimi</b>	1. Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib: tanlash taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda); tanlash takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tanlashda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi. 2. Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa (ball usulidan foydalanganda) yoki bir xil narx taklif qilgan bo'lsa (eng past narx usulidan foydalanganda), tanlash taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchini g'olib deb topadi. 3. Tanlash takliflarini ko'rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan dastlabki elektron bayonnomada qayd etadi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ishkunidan ko'p bo'limgan muddatda
<b>13-bosqich</b>	<b>Xarid komissiyasi a'zolari</b>	Dastlabki elektron bayonnomani ERIdan foydalangan holda imzolaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ishkunidan ko'p bo'limgan muddatda

<b>14-bosqich</b>	<b>Davlat xaridlarining elektron tizimi</b>	Dastlabki elektron bayonnomani muhokama uchun joylashtiradi.	Dastlabki bayonnomma rasmiylashtirilgan kundan e'tiboran ikki ish kunida
<b>15-bosqich</b>	<b>Xarid komissiyasi</b>	<p>1. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilarini tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar tushmagan bo'lsa, bu to'g'risida tegishli elektron bayonnomani rasmiylashtiradi.</p> <p>2. Tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha tanlash ishtirokchilaridan e'tirozlar tushganda ushbu e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.</p>	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran o'n ishkunidan ko'p bo'limgan muddatda
<b>16-bosqich</b>	<b>Adliya organi (muassasasi)</b>	G'olib deb topilgan ishtirokchi bilan elektron shaklda shartnoma tuzadi.	G'olib aniqlangan vaqtidan boshlab o'n ish kunida
<b>17-bosqich</b>	<b>Davlat xaridlarining elektron tizimi</b>	Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni Shartnomalarning yagona reyestriga joylashtiradi.	Avtomatik ravishda
<b>18-bosqich</b>	<b>Adliya organi (muassasasi) ning qabul qilib olish komissiyasi</b>	Adliya organi (muassasasi) tomonidan elektron do'kon orqali xarid qilingan tovarni (ishni, xizmatni) e'lon va shartnomada ko'rsatib o'tilgan shartlar, talablar va boshqa parametrlarga muvofiqligi yuzasidan tegishli tartibda qabul qilgandan so'ng to'lov amalga oshirilishi mumkin.	Shartnomada belgilangan muddatlarda

Adliya organlari va muassasalarida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish reglamentiga 4-ilova

**Tender vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish  
SXEMASI**

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat buyurtmachisi	<p>1. Toq sonli va kamida yetti nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasini tuzadi.</p> <p>2. Xarid komissiyasining har bir a'zosiga va mas'ul kotibiga davlat xaridlarining elektron tizimida shaxsiy kabinet ochadi.</p> <p>3. Tender o'tkazish haqidagi e'lonnинг, tender bo'yicha xarid qilish hujjatining va shartnoma loyihasining matnnini ishlab chiqadi va xarid komissiyasiga kelishish uchun elektron shaklda kiritadi.</p>	Zaruratga ko'ra
2-bosqich	Xarid komissiyasi	Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqadi va kelishadi.	Zaruratga ko'ra
3-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Xarid komissiyasi bilan kelishilgan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarini ERI bilan tasdiqlaydi.	Zaruratga ko'ra
4-bosqich	Davlat buyurtmachisi	Tasdiqlangan tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari, shuningdek, tender o'tkazish haqidagi e'lonnini davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.	Takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida o'n ikki ish kuni oldin va ko'pi bilan o'ttiz ish kuni oldin
5-bosqich	Ishtirokchi	Tender taklifi elektron taklif ko'rinishida o'zining shaxsiy kabineti orqali taqdim etadi.	E'londa ko'rsatilgan muddatdan kechiktirmay
6-bosqich	Davlat xaridlarining elektron tizimi	<p>1. Tender taklifi ishtirokchilar, xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari va boshqa shaxslar tomonidan ko'rili shunga yo'l qo'ymaydi, bundan ushbu taklifni taqdim etgan ishtirokchi mustasno.</p> <p>2. Ishtirokchi taklif etayotgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi.</p> <p>3. Ishtirokchi tomonidan taklif etilayotgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek, to'ldirilishi majburiy bo'lgan maydonlar to'ldirilmagan bo'lsa yoki biriktirilishi majburiy</p>	Tender takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar

		bo‘lgan fayllar mavjud bo‘lmasa, rad etish sababini ko‘rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi.	
7-bosqich	<b>Davlat xaridlarining elektron tizimi</b>	<p>1. Ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etuvchi elektron hujjatlarni xarid komissiyasi mas’ul kotibi va a’zolariga ko‘rish imkoniyatini beradi.</p> <p>2. Tender taklifining malaka, texnik va narx qismlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar tender taklifining oldingi qismi baholanishi yakunlangandan so‘ng ketma-ketlik bilan oshkor qilinishini ta’minlaydi.</p>	Takliflarni qabul qilish muddati tugagandan so‘ng darhol
8-bosqich	<b>Xarid komissiyasining mas’ul kotibi</b>	<p>1. Biriktirilgan fayllardagi ma’lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiqligini tekshiradi.</p> <p>2. Tender taklifi tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarining talablariga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi bo‘yicha qarorni uning asoslangan sababları bilan tasdiqlash uchun xarid komissiyasiga kiritadi.</p>	Takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran qirq besh ish kunidan ko‘p bo‘ligan muddatda
9-bosqich	<b>Davlat xaridlarining elektron tizimi</b>	Tender taklifining miqdoriy ko‘rsatkichlarini, shu jumladan, narx qismini baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran qirq besh ish kunidan ko‘p bo‘ligan muddatda
10-bosqich	<b>Xarid komissiyasi</b>	Miqdor ko‘rsatkichlariga ega bo‘ligan taklifning texnik qismining mezonlari (ekspert mezonlari) bo‘yicha ishtirokchilarning takliflarini ovoz berish orqali taqqoslashni amalga oshiradi va baholaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran qirq besh ish kunidan ko‘p bo‘ligan muddatda
11-bosqich	<b>Davlat xaridlarining elektron tizimi</b>	<p>1. Tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib:</p> <p>tender taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to‘plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);</p> <p>tender takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko‘ra tenderda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g‘olib sifatida aniqlaydi.</p> <p>2. Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to‘plagan bo‘lsa (ball usulidan foydalanganda) yoki bir xil narx taklif qilgan bo‘lsa (eng past narx usulidan foydalanganda), tender taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchini g‘olib deb hisoblaydi.</p> <p>3. Tender takliflarini ko‘rib chiqish hamda baholash natijalarini avtomatik ravishda shakllanadigan elektron bayonnomada qayd etadi.</p>	Takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran qirq besh ish kunidan ko‘p bo‘ligan muddatda

<b>12-bosqich</b>	<b>Xarid komissiyasi a'zolari</b>	Elektron bayonnomani ERIdan foydalangan holda imzolaydi.	Takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran qirq besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda
<b>13-bosqich</b>	<b>Davlat buyurtmachisi</b>	G'olib deb topilgan ishtirokchi bilan elektron shaklda shartnoma tuzadi.	G'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunida
<b>14-bosqich</b>	<b>Davlat xaridlarining elektron tizimi</b>	Tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni Shartnomalarning yagona reyestriga joylashtiradi.	Avtomatik ravishda
<b>15-bosqich</b>	<b>Adliya organi (muassasasi) ning qabul qilib olish komissiyasi</b>	Adliya organi (muassasasi) tomonidan elektron do'kon orqali xarid qilingan tovarni (ishni, xizmatni) e'lon va shartnomada ko'rsatib o'tilgan shartlar, talablar va boshqa parametrlarga muvofiqligi yuzasidan tegishli tartibda qabul qilgandan so'ng to'lov amalga oshirilishi mumkin.	Shartnomada belgilangan muddatlarda

**Adliya organlari va muassasalarida tashkil etiladigan tanlash (tender)  
o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyalari to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

Ushbu Nizom adliya organlari va muassasalarida tashkil etiladigan tanlov (tender) o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyalarining (keyingi o‘rinlarda Xarid komissiyasi deb yuritiladi) vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

1. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari g‘olibini tanlash to‘g‘risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan kollegial organdir.

2. Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni (g‘oliblarni) tanlashdan iborat.

3. Xarid komissiyasi adliya organlari va muassasalari huzurida doimiy faoliyat ko‘rsatadigan, O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga idoraviy mansub idoralar rahbarlarining tegishli bo‘yruqlari bilan shakllantiriladigan va tarqatib yuboriladi.

4. Xarid komissiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, boshqa qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi haqidagi nizom, vazirlik hay’atining qarorlari, adliya vazirining buyruqlari, farmoyishlari, topshiriqlari hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

5. Xarid komissiyasi toq sonli a’zolardan iborat bo‘ladi, uning a’zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog‘liq bo‘ladi hamda qonunchilikka muvofiq va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o‘zgartirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimi xodimlari, adliya organlari va muassasalarining xaridga mas’ul xodimlari hamda texnik (xizmat ko‘rsatuvchi)

xodimlar adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi tarkibiga kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

6. Xarid komissiyasi a’zolari xolis bo‘lishi va xarid qilish tartib-taomili g‘olibini tanlashdan shaxsan manfaatdor bo‘lmasligi kerak.

7. Xarid komissiyasining majlislari xarid komissiyasi a’zolari hozirligida yuzma-yuz o‘tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o‘tkazilishi mumkin.

## **2-bob. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari**

8. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xarid qilish hujjatlarini kelishadi;
- takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;
- takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;
- takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;
- zarur bo‘lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta’minalash shaklini belgilaydi;
- xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;
- dastlabki malaka tanlovini o‘tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo‘lsa;
- zarur bo‘lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;
- zarur bo‘lganda baholash guruhini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;
- xarid qilish tartib-taomillarini ushbu Qonunga muvofiq amalga oshiradi;
- xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g‘olibini va zarur bo‘lganda zaxiradagi g‘olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi;
- Xarid komissiyasi qonun hujjatlari va ushbu Nizom talablaridan kelib chiqib boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

9. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini baholash quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining ta’sis hujjatlari va shartnomaga tuzish vakolatini tahlil qiladi;

- soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligini tekshiradi;

- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilmaganligini tekshiradi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi haqida Insofsiz ijrochilar yagona reyestrida yozuv mavjud emasligini aniqlaydi;

axborotlarning ochiq manbalarida ehtimoli bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida ma’lumotlar mavjud emasligi aniqlaydi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining rasmiy veb-saytidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi;

adliya organlari va muassasalarining xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bilan o‘zaro hamkorligi tarixini o‘rganadi;

xarid ishtirokchilarida shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlarga oid va boshqa resurslar mavjudligini tahlil qiladi;

xarid ishtirokchilarining o‘zaro affillanganligining tekshiradi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi sayti mavjudligi va undagi ma’lumotlarni o‘rganadi;

manfaatlar to‘qashuvni mavjudligi o‘rganadi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida ma’lumotlarni

korrupsiyaga qarshi hujjatlarini tekshirida (taqdim etilgan yoki saytdagi) (agar mavjud bo‘lsa).

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganish adliya organlari va muassasalari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini o‘rganish jarayoni bo‘yicha yo‘riqnomaga asosan amalga oshiriladi.

### **3-bob. Xarid komissiyasi ishini tashkil qilish**

10. Davlat xaridlarini tanlash (tender) orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a’zodan iborat tarkibda tuziladi, uning tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog‘liq bo‘ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o‘zgartirilishi mumkin.

Qonunchilikda boshqacha holat nazarda tutilgan bo‘lmasa, xarid komissiyasining tarkibi adliya organlari va muassasalari boshqaruv xodimlaridan tashkil etiladi.

Xarid komissiyasi to‘g‘ri shakllantirilishi uchun adliya organi (muassasasi) rahbari mas’uldir.

11. Davlat xaridlarini tanlash (tender) orqali o‘tkazishda xarid komissiyasi a’zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar bayonnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

12. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo‘yishni va xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e’lon qiladi, shuningdek xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Xarid komissiyasi raisi yo‘qligida uning vazifalarini o‘rnbosari bajaradi.

Xarid komissiyasi Raisi quyidagi vakolatlarga ega:

Xarid komissiyasi majlislarini chaqirish va majlis kun tartibini belgilash;

Xarid komissiyasi qabul qilgan qarorlar bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish;

Xarid komissiya a’zolari tomonidan o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalar bajarilishini muvofiqlashtirish;

Xarid komissiya a’zolari faoliyatini nazorat qilish;

Xarid komissiyasi samarali ishlashi uchun zarur bo‘ladigan boshqa choralarни ko‘rish.

13. Xarid komissiyasining majlisini rais, u bo‘limgan taqdirda esa uning o‘rnbosari olib boradi. Xarid komissiyaning yig‘ilishi uning azolarining kamida yarmi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

14. Xarid komissiyasining tezkor faoliyatini uning ovoz berish xuquqiga ega a’zosi bo‘lgan mas’ul kotib tomonidan tashkil qilinadi.

15. Muayyan bir davlat xaridini amalga oshirish Xarid komissiyasi a’zolarida davlat xaridi ishtirokchisi bilan manfaatlar to‘qnashuvi yoki Xarid komissiyasi a’zolarining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjudligini ko‘rsatuvchi holatlar aniqlangan taqdirda, bunday a’zoning ovozi mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

16. Mazkur Nizomning 15-bandida ko‘rsatilgan shaxslarni adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi tarkibiga kiritilishini oldini olish maqsadida xarid komissiyasi a’zolarini rad qilish va o‘zini o‘zi rad qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

17. Mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan shaxslar Xarid komissiyasi tarkibiga kiritilganligi aniqlanganda Komissiya raisi bunday shaxsni muayyan xaridni o‘tkazgunga qadar rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Komissiya a’zosini rad etish haqidagi qaror yozma shaklda rasmiylashtiriladi va rad etishga asos bo‘luvchi holatlar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim.

18. Ushbu Nizomning 17-bandida nazarda tutilgan qaror qabul qilingan taqdirda, shuningdek Xarid komissiyasi a’zosi o‘zini o‘zi rad qilingan taqdirda yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda Komissiya a’zosi ma’lum xaridlar bo‘yicha Komissiya yig‘ilishlarida qatnashishga haqli emas.

19. Xarid komissiyasi a'zolarida ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'tarilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

20. Mazkur Nizomning 41-bandida nazarda tutilgan kvorum mavjud emasligi tufayli Xarid komissiyasi a'zosini vaqtincha almashtirish zarur bo'lganda Xarid komissiyasi a'zosini vaqtincha almashtirish haqidagi qaror adliya vazirining buyrug'i bilan Xarid komissiyasi majlisi bayonnomasiga tegishli ma'lumotlar kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

#### **4-bob. Xarid komissiyasi va a'zolarining xuquq va majburiyatları**

21. Xarid komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

a) eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni elektron shaklda o'tkazish chog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berishga;

b) xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib adliya organi (muassasasi) xarid komissiyasi ishtirokchilarga shartnomani bajarish uchun zarur professional va texnik malaka ma'lumotlariga, kasbiy va texnik kompetensiyaga, moliyaviy resurslarga, jihozlarga va boshqa moddiy imkoniyatlarga, boshqaruv malakasiga, ishonchlilikka, tajribaga va obro'ga, shuningdek, inson resurslariga ega ekanligiga ishonch hosil qilish uchun qo'shimcha mezon va talablarni belgilashga.

Bunda ishtirokchilarni kamsitishga, savdolarning bitta yoki bir nechta ishtirokchisiga savdolarda qatnashish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berishga, raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan mezonlarni, talablarni va tartib-taomillarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi;

d) mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan tashkilotni jalb etgan holda tovarning (ishning, xizmatning) boshlang'ich narxini belgilash bo'yicha taklif berishga, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno;

e) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilaridan eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni o'tkazishda davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomalar tuzish va (yoki) shartnomalarini bajarish bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydigan zakalat yoki bank kafolatini kiritishni talab qilish bo'yicha taklif berishga;

d) xarid qilish tartib-taomillarining barcha ishtirokchilariga tatbiq etiladigan takliflarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish bo'yicha taklif berishga;

e) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini takliflarining amal qilish muddatini muayyan davrga uzaytirish to‘g‘risidagi taklif bilan ularga murojaat qilish bo‘yicha taklif berishga.

22. Xarid komissiyasining a’zolari quyidagi huquqlarga ega:

ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan barcha hujjatlar va ma’lumotlar bilan tanishishga;

xarid jarayonida tuziladigan bayonnomalar mazmunining to‘g‘riligini tekshirishga;

ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishga;

Xarid komissiyasining majlislarida o‘zining yozma fikrini davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yopiq chat orqali bayon etishga.

23. Xarid komissiyasining a’zolari quyidagilarga majbur:

uzrli holatlardan (vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, xizmat safari va boshqa sabablar) tashqari Xarid komissiyasining majlislarida shaxsan ishtirok etishga;

qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq xaridlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish tartib-taomillariga rioya qilishga;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarini tekshirish bo‘yicha zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarishga;

mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan biron-bir holatlar kelib chiqqanda, Xarid komissiyasi majlisining kun tartibiga kiritilgan masala bo‘yicha ovoz berishda qatnashmasligi, o‘zini o‘zi rad etishi va uning sabablari haqida komissiya raisiga xabar berishga;

o‘z vakolati doirasida xolisona qarorlar qabul qilishga.

24. Xarid komissiyasining raisi quyidagi huquqlarga ega:

Xarid komissiyasi ishiga umumiylah barbarlik qiladi va mazkur Nizom talablari bajarilishini ta’minalash;

Xarid komissiyasi majlisni vakolatli deb e’lon qilish;

Xarid komissiyasining majlisini ochadi va uni olib boradi, tanaffuslar e’lon qilish;

muhokama qilinadigan masalalarni ko‘rib chiqish tartibini belgilash;

Xarid komissiyasining a’zolari o‘rtasida davlat xaridlari ishtirokchisini tekshirish bo‘yicha vazifalarni taqsimlash;

zarurat bo‘lganda Xarid komissiyasi majlisiga, Xarid komissiyasining ishiga ekspertlarni jalg qilish haqidagi masalani muhokamaga olib chiqish;

davlat xaridlari ishtirokchisini tekshirish to‘g‘risidagi hisobotni o‘qib eshittirish;

Xarid komissiyasining bayonnomasini tasdiqlash;

mazkur Nizomning 15-bandida belgilangan hollarda Xarid komissiyasi a'zolarini rad qilish haqida qaror chiqarish.

Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

25. Xarid komissiyasi kotibi tashkiliy-texnik tavsifdagi funksiyalarni bajaradi, jumladan, Komissiya a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnomalarini yuritadi, Komissiya a'zolariga Xarid komissiyasining navbatdagi majlisi haqida avvaldan xabar beradi.

Xarid komissiyasi majlisida Xarid komissiyasi kotibi ishtirok eta olmaganda uning funksiyalarini Xarid komissiyasi raisi tomonidan tayinlangan Xarid komissiyasi majlisida hozir bo'lgan a'zolaridan biri bajaradi.

26. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.

### **5-bob. Xarid komissiyasi ishini tashki etish**

27. Xarid komissiyasi o'tkazilayotgan tanlov (tender) savdosi doirasida tanlovga (tender) oid takliflarni tayyorlash muddati haqida qaror qabul qiladi va takliflarni qabul qilishning so'nggi muddatini belgilaydi. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Bunda takliflarni tayyorlash muddati maxsus axborot portalida va boshqa ommaviy axborot vositalarida birinchi e'lon berilgandan paytdan boshlab o'n kundan kam bo'lmasligi kerak.

28. Xarid komissiyasi ishtirokchilarga tanlovda qatnashishga ruxsat berish haqidagi masalani hal qilish maqsadida ular tomonidan taqdim etilgan materiallar asosida ishtirokchilarning malaka talablariga mosligi yuzasidan o'rganadi.

29. Xarid komissiyasi tanlash (tender)ga oid xarid qilish hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda:

tanlash (tender) taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);

tanlash (tender) takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra tenderda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi;

tanlash (tender) takliflarini ball usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko'ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa, eng past narx taklif etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

tanlash (tender) takliflarini eng past narx usulidan foydalangan holda baholash natijasiga ko‘ra ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to‘plagan bo‘lsa, texnik qismi bo‘yicha eng maqbul taklifni bergan ishtirokchi g‘olib deb topiladi.

Zaxiradagi g‘olibni aniqlash mazkur bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

30. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin.

31. Xarid komissiyasining barcha qarorlari Xarid komissiyasi majlislarida Xarid komissiyasi a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lib qolganida Xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi bo‘ladi.

32. Xarid komissiyasining barcha majlislari va qabul qiladigan qarorlari bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomalar Xarid komissiyasining hozir bo‘lgan a’zolari tomonidan imzolanishi va Xarid komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanshi lozim.

33. Xarid komissiyasining har bir a’zosi Xarid komissiyasining ish jarayonida qaror qabul qilishi shart, qaror qabul qilishda betaraf bo‘lishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ovoz berish ochiq tarzda amalga oshiriladi. Yashirin tarzda ovoz berish va Xarid komissiyasining a’zolari tomonidan o‘z vakolatlarini boshqa shaxslarga berishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

34. Xarid komissiyasi majlislarida tanaffuslarga yo‘l qo‘yiladi. Xarid komissiyasi majlisini bir kun davomida ko‘chirish tanaffus bo‘lib hisoblanadi. Xaridlarning ommaviy tartib-taomilini o‘tkazishda tanaffus e’lon qilishga faqat xaridlar lotlari orasida yo‘l qo‘yiladi.

35. Yengib bo‘lmas kuch holatlaridan tashqari Xarid komissiyasi majlisining muddatini boshqa kunga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

36. Xarid komissiyasi quyidagi hollarda tender (tanlash)ni o‘tmagan deb topadi:

tanlovda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki bironta ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda;

kelib tushgan takliflar savdo obyektining tanlov hujjatlari shartlariga javob bermasa;

tanlov ishtirokchilari tomonidan taklif etilgan narxlari tanlov savdolarining eng yuqori bahosidan oshib ketsa.

## **6-bob. Xarid komissiyasining javobgarligi**

37. Xarid komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o‘zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg‘arazligi uchun javobgar bo‘ladi.

38. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

39. Xarid komissiyasi tomonidan o‘z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar adliya organi (muassasasi) va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari uchun majburiydir.

## **7-bob. Yakuniy qoidalar**

40. Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishida aybdor bo‘lgan xarid komissiyasi a’zolari O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladi.

**Adliya organlari va muassasalari tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish  
doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni  
bo‘yicha  
YO‘RIQNOMA**

**1-bob. Umumiq qoidalar**

1. Mazkur Yo‘riqnomada tender, tanlash va yagona yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzishda adliya organlari va muassasalarining xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini majburiy tekshirishning asosiy talablari, tartibi va usullarini (keyingi o‘rinlarda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish deb yuritiladi) belgilaydi.

2. Quyidagilar xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini o‘rganishning asosiy maqsadi hisoblanadi:

manfaatlar to‘qnashuvi hamda adliya organlari va muassasalari xodimlarining shaxsiy manfaatdorligi bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish;

insofsiz xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilar bilan shartnoma tuzish xavf-xatarini minimallashtirish;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchi shartnoma tovarlarini yetkazib berish yoki xizmatlarni ko‘rsatish / ishlarni bajarish imkoniyatlarini baholash;

tegishli darajada ehtiyyotkorlik bilan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bilan shartnoma tuzish haqida qaror qabul qilish.

3. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish xarid qilishning barcha ishtirokchilariga nisbatan amalga oshiriladi.

4. Mazkur Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalilanadi:

**xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining benefisiar (oxirgi benefisiar)**  
**egasi** – xarid ishtirokchisining mulkdori bo‘lgan yoki ushbu xarid ishtirokchisiga bevosita yoki bilvosita (uchinchli shaxslar orqali) majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga yoki imkoniyatiga ega bo‘lgan yoxud

u tomondan qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir ko'rsatishi yoki uning harakatlarini boshqacha usulda nazorat qilishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxs;

**IIYAR** – Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri;

**xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi** – davlat xaridlarining subyektlaridan biri hisoblanib, adliya organlari va muassasalari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan yoki kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs, mehnat munosabatlari bundan mustasno.

**manfaatlar to'qnashuvi** – adliya organlari va muassasalari xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda xodimning shaxsiy manfaatdorligi bilan adliya organlari va muassasalari manfaatlari o'rtaida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – adliya organlari xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan adliya organlari yoki ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy xatt-harakatlarni sodir etish xavfi;

**skrinshot** – monitor ekranidan tushirilgan surat.

## **2-bob. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirishning umumiy tartibi**

5. Tanlash (tender) o'tkazish bo'yicha xarid komissiyasi (keyingi o'rinlarda xarid komissiyasi deb yuritiladi) mazkur Yo'riqnomada belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirishga javobgar hisoblanadi.

6. Xarid komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar bo'yicha davlat qo'mitasining, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasi bilan hamkorlik qiladi.

7. Tovar yoki ish (xizmat)lar elektron do'kon yoki auksion orqali amalga oshirilganida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish o'tkazilmaydi.

8. Xarid komissiyasi tanlash (tender) ishtirokchilari tomonidan berilgan takliflar solingan konvertlarni takliflarni baholash uchun ochadi. Kelib tushgan takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Tanlash (tender) bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablariga mos kelmaydigan takliflar xarid komissiyasi tomonidan rad etiladi va baholanmaydi.

Bunda tanlash (tender) taklifining majburiy etib belgilangan mezonlarga mos kelmasligi ishtirokchini davlat xaridlarining elektron tizimi orqali tanlashning har qanday bosqichida chetlatishga olib keladi.

9. Yetkazib beruvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomaga tuzilganida ushbu yetkazib beruvchini tekshirish bir yilda kamida bir marta o‘tkaziladi.

10. Mazkur Yo‘riqnomaga talablariga muvofiq tekshirilishi kerak bo‘lgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bilan tekshiruv yoki uning natijalari olinmasdan turib shartnomaviy munosabatlarga kirishish yoki bitimlar tuzilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

11. O‘tkazilgan tekshiruv natijalari mazkur Yo‘riqnomanining 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladigan hisobotda aks ettiriladi.

12. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish jarayonini maslahat berish formatida va korrupsiyaga qarshi monitoring doirasida nazorat qiladi va uslubiy yordam ko‘rsatadi.

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini quyidagilar asosida tekshiradi:

rasmiy ochiq manbaalarda keltirilgan ma’lumotlar;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar.

14. Tanlash yoki tender hujjatlarini tayyorlovchi shaxs hujjatlar ro‘yxatida xarid ishtirokchisidan quyidagi hujjatlar taqdim etilishini ko‘rsatishi lozim:

davlat ro‘yxatidan o‘tganligi haqidagi guvohnoma nusxasi;

ishonchnomaning yoki xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi vakilining bitimlar tuzish va hujjatlarni imzolash bo‘yicha vakolatlarini tasdiqlovchi boshqa hujjatlari nusxasi;

oxirgi yil bo‘yicha moliyaviy hisoboti;

agar mavjud bo‘lsa, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlari (siyosat, nizomlar, odob-axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi dasturlar va h.k.);

xarid ishtirokchisi xodimlarining o‘rtacha soni haqida ma’lumotnomasi;

xarid ishtirokchisining oxirgi benefisialari haqida mazkur Yo‘riqnomanining 2-ilovasiga muvofiq shaklda tuzilgan ma’lumotnomasi;

korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha xarid ishtirokchisi ichki hujjatlari (siyosat, nizomlar, axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi dasturlar va boshqalar), agar mavjud bo‘lsa;

tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza taqdim etish majburiyligi haqidagi talab;

xarid qilinayotgan tovar yoki ish (xizmat)ning xususiyatidan kelib chiqib xaridning barcha ishtirokchilaridan zaruratga ko‘ra so‘raladigan boshqa hujjatlar.

15. O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq mazkur Yo‘riqnomaning 14-bandida ko‘rsatilgan hujjatlar olinishi majburiy bo‘lib hisoblanadi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlari va xarid ishtirokchisining oxirgi benefisiarlari haqidagi ma’lumotnama bundan mustasno. Xarid ishtirokchisi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlari va xarid ishtirokchisining oxirgi benefisiarlari haqidagi ma’lumotnama berishdan bosh tortganda Xarid komissiyasiga xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida tekshiriladi.

### **3-bob. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish**

16. Xarid komissiyasi quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari haqidagi ma’lumotni tekshiradi va tahlil qiladi:

#### **a) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining ta’sis etilishi va shartnoma tuzish vakolati haqidagi ma’lumotni tahlil qilish.**

Xarid komissiyasi Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestri, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqida guvohnoma, ishonchnama yoki xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi vakilining bitim tuzish va hujjatlarni tuzishga vakolat beruvchi boshqa hujjatlardagi ma’lumotlarni tahlil qiladi va quyidagilarni aniqlaydi:

    xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestrida mavjudligi;

    xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining yuridik va haqiqiy manzili;

    xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi rahbari va muassisalarining F.I.O.;

    xarid ishtirokchisi asosiy faoliyatining xarid predmetiga muvofiqligi;

    xarid ishtirokchisi tugatish jarayonida emasligi yoki faoliyati tugatilmaganligi;

    xarid ishtirokchisining yillar davomida faoliyat olib borish muddati (xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tekshirilgan sana bilan yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sana o‘rtasidagi farqi);

#### **b) soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligini tekshirish.**

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisida soliq qarzi mavjud emasligini soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali orqali tekshiradi (<https://my2.soliq.uz>);

**d) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilmaganligi.**

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilmaganligini soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali orqali tekshiradi (<https://my2.soliq.uz>);

**e) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi haqida Insofsiz ijrochilar yagona reyestrda yozuv mavjud emasligi.**

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi haqida Insofsiz ijrochilar yagona reyestrda yozuv mavjud emasligini davlat xaridlarining maxsus axborot portalida (<http://xarid.uz/unfairexecutor>) tekshiradi;

**g) axborotlarning ochiq manbalarida ehtimoli bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida ma’lumotlar mavjud emasligi.**

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan sodir etgan bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqidagi ma’lumotlarni Internet tarmog‘idagi “Google” yoki boshqa qidiruv tizimida ochiq izlash yo‘li bilan o‘rganadi. Tekshiruv o‘tkazish maqsadida Xarid komissiyasining mas’ul a’zosi qidiruv qatoriga quyidagi kombinatsiyalarni kiritadi:

“xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi nomi” korrupsiya”;

“xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi nomi” pora”;

“xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi rahbarining familiyasi, ismi” korrupsiya;

“xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi rahbarining familiyasi, ismi” pora”;

“muassis/mulkdor familiyasi, ismi” korrupsiya;

“muassis/mulkdor familiyasi, ismi” pora;

“oxirgi benefisiarning familiyasi, ismi” korrupsiya”;

“oxirgi benefisiarning familiyasi, ismi” pora”;

**h) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi saytdagi ma’lumotlarning tahlili.**

Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisida rasmiy sayt mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlaydi. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisida rasmiy sayt mavjud bo‘lganda Xarid komissiyasining mas’ul a’zosi tomonidan saytda korrupsiyaga qarshi hujjatlar va yangiliklar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bo‘lim mavjudligini aniqlaydi;

**i) adliya organlari va muassasalarining xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bilan o‘zaro hamkorligi tarixining tahlili.**

Xarid komissiyasi adliya organi/muassasasi bilan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi o‘rtasida oxirgi 3 yilda shartnomaviy munosabatlari mavjudligini aniqlaydi. Bunday munosabatlar aniqlanganda oldin tuzilgan shartnomalarni o‘z vaqtida, lozim darajada va sifatli ijro etilganligi, shuningdek, bunday xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining korrupsiyaviy faoliyatda ishtirok etganligini tasdiqlovchi faktlar va shubhalar tahlil qilinishi lozim;

**j) xarid ishtirokchilarining o‘zaro affillanganligining tahlili.**

Xarid komissiyasi mas’ul a’zosi xarid ishtirokchilarining oxirgi benefisiari haqidagi ma’lumotnomadagi xarid ishtirokchilarining rahbarlari, muassisleri va oxirgi benefisiari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xaridning bir necha ishtirokchilarining faoliyatini bir vaqtning o‘zida nazorat qiluvchi yoki xaridning bir necha ishtirokchilarining muassisi yoxud oxirgi benefisiari bo‘lgan aynan bir xil jismoniy shaxslar mavjudligini aniqlash uchun tahlil qiladi;

**k) xarid ishtirokchilarida shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlarga oid va boshqa resurslar mavjudligining tahlili.**

Xarid komissiyasining mas’ul a’zosi xarid ishtirokchilarida shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlarga oid va boshqa resurslar mavjudligining tahlili ochiq manbaalar orqali amalga oshiradi (obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlari bundan mustasno).

#### **4-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligini tekshirish**

17. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuning 14-moddasiga asosan davlat buyurtmachisining, maxsus axborot portali operatorining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a’zolari xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o‘z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo‘lishi mumkin bo‘lgan istalgan shaxsiy nafni bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

18. Xarid komissiyasi xarid ishtirokchisidan xarid ishtirokchisining oxirgi benefisiari haqida mazkur Yo‘riqnomaning 2-ilovasiga muvofiq shaklda tuzilgan ma’lumotnomani olganidan keyin ma’lumotnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlarni Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestridagi ma’lumotlarga muvofiqligini tekshiradi. Mazkur tekshiruvdan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining bosh direktori va muassisi o‘tkazilishi lozim.

19. Manfaatlar to‘qnashuvining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqidagi qaror tekshiruv o‘tkazgan xarid komissiyaning mas’ul a’zosi tomonidan qabul qilinadi.

20. Yagona yetkazib beruvchi bilan shartnoma asosida xaridlar amalga oshirilgan taqdirda, Xarid komissiyasining mas’ul a’zosi tomonidan xarid qilish tartib-qoidalarida ishtirok etgan shaxslardan hujjatlar olingan kundan boshlab yagona yetkazib beruvchini tekshirish jarayoni amalga oshiradi.

21. Xarid komissiyaning mas’ul a’zosi (Inson resurlsari boshqarmasi/bo‘linmalar) tekshiruv natijalariga ko‘ra Xarid komissiyaga manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi haqidagi ma’lumotni o‘z ichiga olgan xizmat xatini yuboradi.

22. Manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda adliya organi yoki muassasasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

a) xarid komissiyasi a’zosi bilan xarid ishtirokchisi o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lganda: xarid komissiyasi a’zosi ushbu xaridga nisbatan xarid komissiyasi yig‘ilishida qatnashishdan chetlashtiriladi, xarid ishtirokchisi esa xaridda qatnashishdan chetlashtiriladi;

b) adliya organi va muassasasining boshqa xodimi bilan xarid ishtirokchisi o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lganda: xarid ishtirokchisi xaridda qatnashishdan chetlashtiriladi;

v) Xarid komissiyasi a’zosi bilan xarid ishtirokchisi o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lganda: xarid bekor qilinadi va takroriy xarid tashkil qilinadi, manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan Xarid komissining a’zosi xaridda qatnashishdan chetlashtiriladi.

Davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risidagi axborotni olgach, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq davlat nazoratini amalga oshiruvchi davlat organlariga tegishli axborotni kiritishi shart.

23. Mazkur Yo‘riqnomaning 23-bandi “a” va “b” kichik bandlarida nazarda tutilgan hollarda quyidagi choralar ko‘rilishi kerak:

ishtirokchilarining takliflarini baholash faqatgina ochiq tarzda amalga oshiriladi. Xarid komissiyasining majlisida qatnashish uchun ovoz berish huquqiga ega bo‘lмаган, бироқ xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tanlash jarayonining shaffofligi va xolisligini nazorat qiladigan Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘liminig xodimi taklif qilinishi lozim. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘liminig xodimi xarid komissiyasining yig‘ilishida videokonferensaloqa vositasida qatnashishi kerak;

ishtirokchini rad etish haqidagi ma'lumot xarid komissiyasi majlisining bayonnomasida ko'rsatiladi.

24. Agar organ yoki adliya muassasasi xodimi va yagona yetkazib beruvchi o'rtaida manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lsa, shartnomal tuzilmaydi. Bunday holatda xarid qilish tartib-taomilini ayni o'sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshirishi shart.

### **5-bob. Yakunlovchi qoidalar**

25. Mazkur Yo'riqnomaga muvofiq o'tkazilgan tahlil natijalari mazkur Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish haqidagi hisobotda o'tkazilgan tahlillar skrinshoti ilova qilingan holda aks ettiriladi.

26. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish haqidagi hisobot xarid komissiyasiga yetkaziladi va yakuniy qaror qabul qilinishida inobatga olinadi, bu haqda komissiya majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

27. Xarid komissiyasi, agar tekshiruv natijalariga ko'ra ular O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuning 29 va 34-moddalariga muvofiq kelmasa, ishtirokchilarining arizalarini rad etadi. Agar xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish haqidagi hisobotda 8, 9, 10, 11, 12, 16-bandlarning kamida bittasida "yo'q" javobi bo'lsa, ishtirokchilar ko'rsatilgan mezonlarga javob bermaydi.

28. Agar xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish natijalariga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarning mavjudligidan yoki korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining mavjud emasligidan dalolat beruvchi ma'lumotlar aniqlanganda, ya'ni 13 va 14-bandlarda tegishli ma'lumotlar ko'rsatilganda, unda korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

ishtirokchilarining takliflarini baholash faqatgina ochiq tarzda amalga oshiriladi. Xarid komissiyasining majlisida qatnashish uchun ovoz berish huquqiga ega bo'limgan, biroq xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tanlash jarayonining shaffofligi va xolisligini nazorat qiladigan Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'liminig xodimi taklif qilinadi. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limining xodimi xarid komissiyasining majlisida videokonferensaloqa vositasida qatnashishi mumkin;

agar korrupsiyaviy xavf-xatar bilan tavsiflangan ishtirokchi tanlash yoki tender g'olib deb topilganda, moliya-iqtisod boshqarmasi/bo'limi tuziladigan shartnomal

shartlarini ishtirokchining arizasiga, tashlash yoki tender hujjatlari shartlariga muvofiqligini tekshirishi lozim;

agar korrupsiyaviy xavf-xatar bilan tavsiflangan ishtirokchi tanlash yoki tender g‘olibi deb topilganda, xarid natijalari (mahsulot yetkazib berish, xizmat ko‘rsatish, ish bajarish)ni qabul qilish adliya organi va muassasasidagi turli tarkibiy bo‘linmalarining kamida uch nafar xodimi tomonidan adliya organi va muassasasidagi korrupsiyaga qarshi muvofiqlashtiruvchi shaxs ishtirokida amalga oshiriladi.

29. Tekshiruv natijalari haqidagi hisobot xarid hujjatlariga qo‘shiladi va Ishlar boshqarmasi/xo‘jalik faoliyati va mehnatni muhofaza qilish bo‘linmalarida saqlanadi.

Davlat xaridlarini amalga oshirish  
doirasida xarid qilish tartib-taomillari  
ishtirokchilarini tekshirish jarayoni  
bo‘yicha yo‘riqnomaga  
1-ILOVA

## **Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshirish haqidagi HISOBOT**

1. Xarid qilish tartib-taomillari  
ishtirokchisi nomi \_\_\_\_\_

2. STIR \_\_\_\_\_

3. Ro‘yxatga olish sanasi \_\_\_\_\_

4. Manzil \_\_\_\_\_

5. Rahbar F.I.O. \_\_\_\_\_

6. Muassislar Fi.I.O. \_\_\_\_\_

7. Oxirgi benefisiarlar F.I.O. \_\_\_\_\_

8. Ishtirokchi shartnoma tuzishga  
vakolatlimi?

9. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan  
qarzdorlik mavjudmi?

10. Xarid qilish tartib-taomillari  
ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik  
tartib-taomillarining joriy qilinganmi?

11. Insofsiz ijrochilar yagona reyestrida  
xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi  
haqidagi yozuvlarning mavjudmi?

12. Ishtirokchi xaridning boshqa  
ishtirokchilari bilan affilanmaganmi?

13. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga  
oid huquqbazarliklar haqida ma’lumot  
mavjudmi?

14. Korrupsiyaga qarshi hujjalarning  
mavjudmi (taqdim etilgan yoki  
saytdagi)?

15. Xarid qilish tartib-taomillari  
ishtirokchisi sayti

*Ha*

*Yo‘q*

co‘m

*Ha*

*Yo‘q*

*Ha*

*Yo‘q*

*Ha*

*Yo‘q*

Mavjud emas / Manbaa: [havola], [Korruptsiyaga oid  
huquqbazarlikning tavsifi / xarid qilish tartib-taomillari  
ishtirokchisining poraxo‘rligi]

*Ha*

*Yo‘q*

Mavjdu emas / Saytning adresi: [havola], faoliyat yuritadi  
/ yuritmaydi

- 
16. Xarid qilish tartib-taomillari  
ishtirokchisi resurslari hajmi shartnoma  
bo'yicha majburiyatlarni bajarishga  
yetarlimi?
- |           |                                     |             |                                     |
|-----------|-------------------------------------|-------------|-------------------------------------|
| <i>Ha</i> | <input checked="" type="checkbox"/> | <i>Yo'q</i> | <input checked="" type="checkbox"/> |
|-----------|-------------------------------------|-------------|-------------------------------------|
- 
17. Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi  
ma'lumot mavjudmi?
- |           |                                     |             |                                     |
|-----------|-------------------------------------|-------------|-------------------------------------|
| <i>Ha</i> | <input checked="" type="checkbox"/> | <i>Yo'q</i> | <input checked="" type="checkbox"/> |
|-----------|-------------------------------------|-------------|-------------------------------------|
- 
18. Hisobotga ilova qilingan boshqa materiallar
- a)
- b)
- v)
- g)
19. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisini tekshiradigan xodim haqida ma'lumotlar
- F.I.O
- 
- Lavozimi
- 
- Hisobot tuzilgan sana
- 
- Lot raqami
-

Davlat xaridlarini amalga oshirish  
doirasida xarid qilish tartib-taomillari  
ishtirokchilarini tekshirish jarayoni  
bo'yicha yo'riqnomaga  
2-ILOVA

\_\_\_\_\_ (xarid ishtirokchisi)ning oxirgi beneficiari haqida

**MA'LUMOTNOMA \***

T/r	F.I.O	Tug'ilgan sanasi	Shaxs roli (rahbar/muassis/oxirgi benefisiar)	Shaxs rahbar/muassis/oxirgi benefisiar bo'lgan davr	Ishtirok etish ulushi (faqat 5%dan ortiq egalik qiluvchi muassislar uchun)
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
...					

\* so'nggi ikki yil uchun to'ldiriladi

Vakolatli shaxsning F.I.O. \_\_\_\_\_

Xarid ishtirokchisida vakolatli shaxsning lavozimi

Ma'lumotnoma tuzilgan sana \_\_\_\_\_